

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

UDK.....

USMONOVA MEHRINISO

**O'ZBEKISTONDA URUSH YILLARDA XOTIN-
QIZLAR FAOLIYATI. (1941-1945)**

mavzusidagi

Mutahassislik: 5A120301 - O'zbekiston tarixi

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar: D.Sobirova
Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Andijon – 2013 yil

M U N D A R I J A

1. **Kirish** 3
2. **I-BOB . Urush yillarida xotin qizlar mexnatining ijtimoiy -iqtisodiy muamolari**.....
3. **II-BOB** Urush yillarida xotin-qizlarning front ortidagi jasorati
.....
4. **III-BOB** O'zbekistonlik ayolarning fan va
madaniyatga qo'shgan xissasi.....
5. **Xulosa**
6. **Adabiyot va manbalar ro'yxati**.....
7. **Ilovalar**.....

KIRISH

*Ayollarni qancha ulug'lasak hayotimizning chirog'i,
guli deb e'zozlasa demakki, oilamizni, vatanimizni e'zozlagan
bo'lamiz.*

I.A. Karimov

Yurtboshimiz Islom Karimov 2013 yilning 9 mayida Toshkent shahridagi Xotira maydonida o'tkazilgan Xotira va qadrlash kuni tadbirida ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbatlashar ekan "El-yurtimiz o'z tarixida boshidan kechirgan misli ko'rilmagan sinov va suronli kunlarni yana va yana bir bor o'zimizga tasavvur qilar ekanmiz, ishonchimiz komilki- O'zbekiston o'z ozodligi, o'z qadr-qimmatini uchun hamisha mardlik va matonat ko'rsatib kelgan, hech kimga bosh egmagan va hech qachon bosh egmaydi", deb aytdi.

-“Hayotning o'zi bir haqiqatni takror va takror isbotlab bermoqda,- deb ta'kidladi I.A.Karimov. - Ya'ni tarixni bilmagan, tarixni unutgan, tarixdan xulosa chiqarmagan har qanday inson, har qanday xalq o'z yo'lidan adashishi, bir vaqtlar yo'l qo'ygan xatolarini yana takrorlashi mumkin”¹.

Yurtimizda hayotbahsh o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida jamiyat a'zolarini erkin, demokratik tafakkur va milliy g'oya ruhida tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining ahamiyati ortib bormoqda. Zero "...har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, xayoti qadiryatlardan ayri xolda tasavvur etib bo'lmaydi “.¹

Milliy istiqlol yillarida vatanimiz tarixini haqqoniy, ilmiy asosda o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, 70 yildan ortiq davr ichida xalqimiz boshidan kechirgan ma'naviy tazyiqlarning o'zbek xotin-qizlari ijtimoiy hayotga ta'siri, sovet totalitar tuzuminining mahalliy millat xotin-qizlariga bo'lgan munosabati masalasi o'zining ilmiy asoslangan talqinini kutayotgan muhim muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekiston respublikasi prezidenti Islom Karimov aytganidek: "Butun ma'rifiy dunyoda xotin-qizlar manfaati degan alohida masala bor va uni o'rganish, yechimini topishga juda katta ahamiyat berilishi bejiz emas. Agar ayollarga yetarli e'tibor berilmasa, bunday jamiyatning kelajagi bo'lmasligi haqida o'ylaymanki, uzoq gapirib o'tirishning hojati yo'q". Bu borada yaqin o'tmish sovet davri tajribasini sinchiklab o'rganish va undan zarur saboqlar chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz I.A.Karimov O'zining "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" asarida "Bir narsani alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Urush davri voqealarini, jangchilarimizning jasoirlarini tahlil etishda va ta'riflashda ham mafkurabozlikni, balandparvoz gaplarni, dabdabali shiorlarni kamaytirib, umri erta xazon bo'lgan otalarimiz, akalalarimiz xotirasi oldida iztorob bilan bosh egib ularning jasoratini faxr bilan eslab avvalombor, halok bo'lganlarning oilalariga g'amxo'rlik qilish, bugun hayot bo'lgan sobiq jangchilarga faqat tasannolar aytish bilan cheklanib qolmasdan ularga amaliy yordam berish biz uchun ham qarz, ham farzdir.”¹ degan gaplarini alohida aytish lozim.

Mavzuning dolzarbligi Sovet davrida ikkinchi jahon urushi tarixi bo'yicha juda ko'p asar va maqolalar chop etilib, dissertatsiyalar yoqlandi. Garchand bular O'zbekistonning fashistlar tor-mor qilinishiga qo'shgan ulkan hissasini ko'rsatishga harakat qilgan bo'lsa-da, lekin, ular kommunistik ruhda yozilganliklari bois qo'pol xato va kamchiliklarga yo'l qo'yildi: Zero, o'zbeklar go'yo kommunistik partiya, sovet davlati, "sotsiolizm tuzumi", "xalqlar dohiy"si Stalin uchun qon to'kdilar, degan fikrlar baralla oldiga surildi. Urushdagi g'alaba esa go'yo "sotsiolizm" tuzumining afzalligi va uning baxtli hayot ramzi bo'lganligi uchun qo'lga

¹// Халқ сўзи. 2013, 10 май

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent.: Ma'naviyat, 2008.-B.30.

¹ I.A.Karimov "Vatan sajdogah kabi muqaddasdir" T.: 1996. 81-bet

kiritilgan emish.

Mustaqillik sharoitida jamiyatdagi yangi o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida, jamiyat a'zolarini erkin, demokratik tafakkur va milliy g'oya ruhida tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining ahamiyati ortib bormoqda. "Albatta har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi"². Milliy istiqlol yillarida O'zbekiston tarixining ko'pgina masalalari o'zining yangi, ilmiy jihatdan xolis va haqqoniy yechimini topa boshladi. Bu ayniqsa, bir necha o'n yillar davomida soxtalashtirilib, bir yoqlama talqin qilib kelingan sovet davri tarixini o'rganishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbekiston davlat suverenitetiga erishganidan keyin o'zbek xalqi tarixini, avvalo, mamlakat tarixshunosligida buzib ko'rsatilgan sovet davri tarixini milliy mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan tanqidiy mushohada qilish uchun zarur shart-sharoit yuzaga keldi.

Vatanimiz tarixining sovet mustamlakachiligi davri bilan bog'liq sahifalariga bugungi kun nuqtai nazaridan xolisona baho berish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, xalqimiz ma'naviyatining yuksalishida tadqiq etilayotgan sovet davri tarixini hozirgi mustaqillik davri bilan qiyosiy taqqoslash milliy istiqlolni yanada munosib qadrlash imkonini beradi. Zero, erkin va farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2005 yil 14 yanvarda Moskvaning «Nezavisimaya gazeta»si muxbiri savollariga bergan javobida sovet hokimiyatining mohiyatini ochib ko'rsatish bilan birgalikda, bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida shunday degan edi: "Masalaning muhim jihati –islohotlarning odamlar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatayotganida. Biz nafaqat siyosiy jabhani, balki iqtisodiyotni ham, ijtimoiy hayotni ham, ma'naviy-axloqiy sohani ham isloh qilishimiz zarur"¹.

Ma'lumki, sovet hokimiyati va kommunistik partiyaning hukmronligi yillarida ma'naviy-siyosiy, mafkuraviy yakkahokimlik tufayli tarixchi olimlarning haqiqatni yoritish imkoniyati yo'q edi. Milliy istiqlol yillarida Vatanimiz tarixini haqqoniy, ilmiy asosda o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek, «O'z tarixini bilmagan jamiyat istiqbolga eltuvchi yo'lni topa olmaydi. Tarixga bepisand xalqning kelajagi yo'q. Ko'p asrlik tarixi mobaynida O'zbekiston qancha bosqinlarni ko'rmadi, Markaziy Osiyo mintaqasi qanday bo'ronlar ichida qolmadi, kimlar bizni tobe va qaram qilishga intilmadi. Ana shu tarixdan saboq chiqarmasak, ertaga kechagi kun ko'rgiliklari qaytadan boshimizga tushib qolishi hech gap emas. Boshqacha aytganda, kechagi kundan to'g'ri xulosa chiqarib ish tutgan jamiyat kelajakka ishonch bilan qadam qo'yadi"².

Vaholanki, o'zbek xalqi kommunistik partiya va "sotsiolizm" uchun emas, balki vatan himoyasi va taqdiri uchun qahramonlarcha jang qildi. Bu yo'lda uning yuz minglab farzandlari halok bo'ldi, ko'pdan-ko'p odamlar jarohatlandi. Shuningdek, u topgan-tutgani va umuman boyliklarini sarflab, suyagigacha shilindi.³

Sovet mustabit tuzumi yillarida kommunistik partiya xotin-qizlar masalasida o'z maqsad – manfaatlaridan kelib chiqqan holda siyosat olib bordi, mazkur masalani mafkuraviy tazyiq ostida hal etishga intilish og'ir oqibatlariga olib keldi. Sovet hokimiyatiga va kommunistik partiya o'z oldiga "Ayollarning butunlay yangi avlodni, ularni faqat oilani o'ylaydigan emas, balki ko'proq jamiyat ijtimoiy, siyosiy hayotda erkaklar bilan tengma-teng, faol ishtirok etishni istaydigan shaxslar qilib tarbiyalashni asosiy vazifa qilib qo'ygan edi."¹ Shuning uchun xotin-qizlarning faoliyatiga ta'sir etishning mafkuraviy va ishlab chiqarish omillari tashkil etadi.

Sovetlar tarafdorlarini sonini va markazining itoatkor xizmatkorlarni ko'paytirish singari siyosiy maqsadlarda kelib chiqib, niqoblangan mustamlakachilik siyosatining "ayyorona"

² Ислон Каримов.Юксак маънавият-енгилмас куч.-Т.:Маънавият, 2008.Б.30.

¹ Каримов И.А.Империя даврида бизни иккинчи даражали одамлар, деб хисоблашар эди. "Независимая газета" /Москва/ мухбирининг саволларига жавоблар, 2005 йил 14 январь. 13-жилд. -Т.: Ўзбекистон, 2005.Б.142.

² Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари –олий қадрият. 14-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2006.Б.219.

³ Hamid Ziyov "O'zbekiston birinchi va ikkinchi urush davrida"56 –bet.

¹ Sobirova.D O'zbekistonda xotin-qizlar masalasi tarixidan.Toshkent "Akademnashr" 2011. 4-bet

tadbirlari orqali faoliyat olib bordi, shu maqsadda turli qaror va ko'rsatmalar qabul qildi.

Sovet hokimiyati va kommunistik partiyani xotin-qizlar masalasida yuritgan siyosati qarama-qarshi xarakterga ega bo'lib, ijobiy va salbiy ahamiyat kasb etgan.

Masalaning salbiy tomoni esa sovetlar tomonidan olib borilgan o'zbek xotin-qizlarining siyosiy va huquqiy ongini shakllantirmaslikka qaratilgan siyosat tufayli mahalliy millat vakillarida milliy o'zlikni anglash va mustaqillik uchun kurashishga zarur bo'lgan tug'ma ehtiyojlarning uyg'onishiga yo'l qo'yilmadi.

Shuningdek, ayollarning mashaqqatli hayoti, u yoki bu ko'rinishdagi fojealari sababi ijtimoiy-siyosiy tuzumdan, jamiyatning o'zidan izlanmay, bosh aybdor sifatida din va shariat e'tirof etildi, e'tiqod erkinligiga nisbatan jangovar ateizm siyosati olib borildi. Islom diniga qarshi kurash bahonasida xalqimizning qadimiy urf-odatlarini, madaniyatini, qadriyatlariga urush e'lon qilindi. Xotin-qizlarni «ozodlikka chiqarish» bahonasida 1927- yilda respublikada «Hujum» harakati boshlandi. «Hujum» harakati va uning salbiy oqibatlari haqida yozuvchi Chingiz Aytmatov shunday degan edi: «Afsuski, davlat tomonidan o'tkazilgan «Hujum» kompaniyasi o'sha davrning og'ir xatolaridan biri edi, deyish kamlik qiladi. Bu insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyat edi. Ustiga-ustak, ilohiy olam qurilmasiga qarshi yo'naltirilgan jinoyat edi. Xudoning barqarorligini inkor etgan muradlar xudoning vazifasini o'z zimmlariga oldilar va «yangi odam yaratamiz» deb, dahshatli o'yin boshladilar». Sovetlar barcha qoloqliklarning sababini din bilan bog'lashga harakat qilishdi. Islom dini xotin-qizlarning ijtimoiy hayotda va ishlab chiqarishda qatnashishini man etmasa-da, hamma ayb unga ag'darildi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy aholi orasida sovet hokimiyatiga qarshi dushmanlik kayfiyatini kuchaytirdi. Shuning uchun ham «...ayollar o'rtasida dinga qarshi tashviqotni keskin yo'lga qo'yish, ularni ijtimoiy mehnatdan chetlashtirib yuborishi» mumkinligi tufayli «ko'pxotinlik va qalin dinning aybi» sifatida e'tirof etildi.

1940- yil 15 mayda 1925-yilda tashkil topgan «Kurashchan xudosizlar Ittifoqi»ning 15 yilligini barcha joylarda tantanali ravishda nishonlash haqida maxsus qaror qabul qilinganidan so'ng ateizm bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari yanada kuchaytirilib, ma'ruzachilar moddiy rag'batlantirildi. Biroq 1942-yilda, urush yillarida sovet hukumati va kommunistik partiya ijtimoiy hamkorlikni ko'zlab dinga nisbatan vaqtinchalik kurashni to'xtatgani bois, «Kurashchan xudosizlar Ittifoqi»ning Markaziy Kengashi tugatildi. Ammo urush tugashi bilanoq ateizm bo'yicha targ'ibot ishlari yana davom ettirildi.

O'rganilayotgan davrda xotin-qizlarning faoliyati totalitar tuzum tomonidan maxsus «qolip»ga solingan, ularga nisbatan o'ta mafkuralashtirilgan siyosat olib borishgan bo'lsa-da, o'zbek xotin-qizlari o'z insonparvarligini, milliy qadriyatlarini saqlab, doimo ularga sodiq qola oldi. Ayniqsa, fashizmga qarshi urush yillarida ayollarimiz vatanparvarlik, jasorat namunalari ko'rsatdi.

Ma'lumki, 40-yillarning birinchi yarmi erksevar xalqlarning fashizmga qarshi kurashi bilan izohlanadi. Bu og'ir damlarda nafaqat erkaklarning, balki xotin-qizlarning ham metin irodalari katta sinovdan o'tdi, O'zbek xotin-qizlari Vatan tuyg'usini qanchalik teran his etishlari o'sha og'ir yillarda yanada yorqinroq namoyon bo'ldi.

Mustaqillik va ozodlik sharofati ila yurtboshimiz Islom Karimovning tashabbusi va ishtirokida jang maydonlarida halok bo'lganlarning ro'yxatini o'z ichiga olgan ko'p jildlik xotira kitobi nashr qilindi. Xotira maydonida ajoyib nomi zar harflar bilan bitildi. Respublikamizning boshqa shaharlarida ham xotira yodgorliklari barpo etildi. Urush nogironlarining qadr-qiymati o'rniga qo'yilib izzat va hurmat ko'rsatilmoqda.

Mustaqillik yillarida urushda jasorat ko'rsatgan shaxslarni ulug'lanishi birgina prezidentimizning 2013-yil 25-aprel kuni **“Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida”**gi qonunida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu qonunga asosan : “9-may umumxalq bayrami – xotira va qadrlash kuni o'tkazilishi, shuningdek, 1941 – 1945 yillardagi Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 68 yilligi nishonlanishi munosabati bilan hamda urush qatnashchilari va nogironlarni moddiy rag'batlantirish maqsadida:

1. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga 500 000 (besh yuz ming) so'm miqdorida bir martalik pul mukofati belgilansin.
 2. Mazkur farmonni bajarish bilan bog'liq sarf-xarajatlar respublika byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilsin.
 3. O'zbekiston respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Moliya xavfsizlik xizmati, Mehnat va aholini muhofaza qilish vazirligi, Moliya vazirligi va Markaziy bank bilan birgalikda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga ushbu pul mukofatini tantanali va bayramona vaziyatda topshirishni ta'minlasin. ...
- ...5. Ushbu farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston respublikasi bosh vaziri Sh. M. Mirziyayev zimmasiga yuklansin"¹.

Ishning maqsad vazifalari Muammoning ilmiy nazariy jihatdan dolzarbligi va muhimligi, uning tadqiq etilish darajasidan kelib chiqqan holda tanlangan davriy doirada xotin-qizlarga munosabat masalasida sovet mustabid tuzumi davlat siyosatining keltirib chiqargan oqibatlarini yangi konseptual-metodologik asosda o'rganishdan iborat maqsad belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishning ustuvor maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi asosiy vazifalarni hal etish aniqlandi:

- sovet mustabid tuzumining O'zbekiston xotin-qizlarini ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etishdan ko'zlagan maqsadining mustamlakachilik mohiyatini ochib berish;
- 1941-1945 yillardagi O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy ahvolini xolisona o'rganish;
- xotin-qizlar mehnatining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini ilmiy mushohada qilish;
- respublika sanoati taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rni va rolini manbalar asosida talqin qilish;
- xotin-qizlarni ijtimoiy muhofaza etish muammolarini o'rganish;
- fan va maorif tizimida xotin-qiz kadrlar tayyorlashdagi muammo va kamchiliklarni tarixiy hujjatlarga tayanib asoslab berish;
- O'zbekiston xotin-qizlarning san'at sohasidagi faoliyati, erishilgan yutuq va kamchiliklarni talqin qilish;
- mavzuga oid manbalarni o'rganish va tahlil etish natijasida xulosalar chiqarish, istiqbolning hozirgi bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotga yordam beradigan amaliy taklif va tavsiyalar berish.

Ushbu BMI da ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston xotin-qizlarining ishtiroki ularni ko'rsatgan xizmatlari ochib berilgan urush dahshatlari ayollarni ham chetlab o'tmagan. Kasb-hunar kollejlari, akademik litsey talabalariga ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston tarixi fanini o'tayotib 1941-1945 yillarda xotin-qizlar masalasini ochib berishdan iborat. BMI ga qo'yilgan maqsad va vazifaga muvofiq quyidagi masalalarni ko'rib chiqish va tahlil qilish rejalashtirilgan.

Birinchidan — kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda ikkinchi jahon urushi yillarida xotin-qizlar mavzusini o'rganish.

Ikkinchidan – urush yillarida O'zbekistonlik ayollarga bo'lgan munosabat va ularni ishtirokini o'rganish.

Uchinchidan — urush yillarida ayollarning ahvoli, ko'rsatgan jasoratlarini tahlil qilish.

Tatqiqot obyekti va predmeti: Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda urush yillarida O'zbekiston tarixini o'tayotganda darslik, qo'llanma adabiyotlar ko'rgazmali qurollar.

Mavzuni o'rganish darajasi: Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonlik xotin-qizlar ishtiroki to'g'risida ko'p ilmiy ishlar dissertatsiya ishlangan bo'lib Mustaqillikni dastlabki yillarida D. A. Alimovning O'rta Osiyo xotin-qizlari masalasining tarixshunosligiga oid ilmiy monografiyasi va bir qator ilmiy maqolalari, doktorlik dissertatsiyasi sovetlarning xotin-qizlarga nisbatan siyosatining mustamlakachilik mohiyatini ochib berishda dastlabki qadam bo'ldi.¹

¹ Adijonnom 2013 yil 2- may

¹ Alimova D.A. Женски впроег Средни Азии: Исторя изувучения и савримени проблем: Т fan 1991: Alimova D.A O'zbekiston ijtimoiy fanlardea xotin-qizlar muamolarining o'rganishi va muamolari//

M. To'xtaxo'jayeve o'zining xotin-qizlarga bag'ishlangan "O'tmish toliqtirgan ayollar" asarida xotin-qizlar ahvolidan yaxshilashi jamiyatga faqat ijobiy tasir ko'rsatadi, deb ta'kidlagan.²

D.Sobirova o'zining O'ZBEKISTONDA SOVET TOTALITAR TUZUMINING AYO'LLAR MASALASIDAGI SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI (XX ASRNING 40-80 YILLARI) kitobi va disertatsiyasi, ikkinchi jaxon urushi yillarida xotin-qizlarga bo'lgan munosabatini ularni ishtiroki va ko'rsatgan xizmatlarini yoritib bergan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi avvalo, mavzuning mustaqillik mafkurasi asosida tadqiq etilib, manbalarga tanqidiy tarixiy jihatdan yondoshilib, ilk marotaba muomalaga kiritilayotgan yangi ma'lumotlar, va davriy matbuot materiallari asosida ilmiy-nazariy xulosalar qilinganligida ko'rinadi.

Ushbu tadqiqot yangicha qarashlar, milliy g'oya va yangi metodologiya asosida hali tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan dolzarb masalani, ya'ni sovet totalitar tuzumining ayollar masalasidagi siyosati va uning oqibatlarini yangi hamda ko'pchiligi ma'lum bo'lmagan manbalarga asosan birinchi bor o'rganilganligidadir. Shuningdek, Bitiruv malakaviy ishnining

-urush yillarida o'zbek xotin-qizlariga tabiatan xos bo'lgan vatanparvarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik xislatlarining namoyon bo'lishi hamda ularning fidokorona mehnatlari manbalar orqali yoritib berilgan;

-sovet mustabid tuzumining O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy guruh sifatida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalariga jalb qilinishidan ko'zlagan maqsadining mustamlakachilik mohiyati ochib berilgan;

- O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy ahvoli, ular mehnatining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari ilmiy o'rganilgan;

- xotin-qizlarni ijtimoiy muhofaza etish muammolari, ekologik holat keskinlashuvining xotin-qizlar hayotidagi salbiy oqibatlari ilmiy tahlil etilgan;

- O'zbekiston xotin-qizlarining madaniy-ma'naviy hayotga jalb qilinishining ijobiy va salbiy natijalari tadqiq etilgan;

-fan va maorif tizimida xotin-qiz kadrlar tayyorlashdagi muammo va kamchiliklar tarixiy hujjatlarga tayangan holda asoslab berilgan;

- muammoga oid tegishli xulosa, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning nazariy metodologik asoslari. BMI mavzusiga oid nazariy metodologik asoslarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari, O'zbekiston Respublikasi milliy g'oyasining maqsad, vazifalari, xalqimizning milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda milliy g'oya asos qilib olinib, uning metodologik tamoyillarini bugungi kunda o'zbek milliy tarixshunoslik fanida amal qilinayotgan nazariy va amaliy qarashlar chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida, ma'ruza va ilmiy maqolalarida, Davlat va hukumat farmonlari hamda qarorlarida ilgari surilayotgan uslubiy ko'rsatmalar tashkil etadi.

Tadqiqot tuzilish jihatdan kirish, 3 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismidan iborat.

O'zbrkistonda oila, davlat va jamiyat qurilishida ayolarning ro'li gender muamolari T: Fan .1999. B 16- 20

² To'xtaxo'jayeve M Между лозунгами каммунизима и законими ислама.

I-BOB. Urish yillarida xotin qizlar mehnatining ijtimoiy -iqtisodiy muamolari.

Ikkinchi jahon urushi janggohlarida 1,5 mln nafar vatandoshimiz jangga kirgan, respublikada o'sha paytda qariyb 4 mln aholi istiqomat qilardi. To'rt yuz mingdan ziyod kishi urushda halok bo'lgan bo'lsa, taxminan 130 ming nafar kishi bedarak ketgan. Bu xalqimiz uchun katta yo'qotish edi. O'zbekistondan 4555 nafar xotin-qiz urush yillarida frontda erkaklar bilan bir safda turib janga kirishdi.

1941- yil 26 iyunda toshkentlik 1551, 28 iyunda farg'onalik 423, xorazmlik 147, andijonlik 798, namanganlik 267 nafar xotin-qiz armiya safiga qabul qilishlarini, frontda jang qilish istagini bildirib ariza topshirgan. 1942- yil bahorda Toshkent davlat tibbiyot institutini tugatib, frontga otlangan 20 nafar yosh vrachlar orasida Nuri Shokirova, Po'latoy Qodirova, Sobira Majidova singari o'zbek qizlari ham bor edi. Urushning dastlabki yillarida 1- o'zbek delegatsiyasi tushgan va sovg'a-salomlar orilgan poyezdni boshqarib borgan mashinist Bashorat Mirboboyeva, Zebo G'aniyeva, Muqaddam Ashrapova, Aziza Qalandarova, Roza Ibrohimova va Mavjuda Samatovalar haqiqiy qahramonlar qatoridan o'rin olishgan. Biroq sovet mustamlakachiligi davrida o'zbek ayollarining tabiatida mavjud bo'lgan vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ulari sun'iy ravishda Ittifoq deb atalgan hudud bilan o'lgan. Bu esa ularda milliy o'zlikni anglash va milliy mustaqillik uchun kurashishga qaratilgan ehtiyojlarning shakllanishiga imkon bermagan¹.

O'rganilayotgan davrda kommunistik partiya rahnamoligidagi sovet davlati respublika ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining fashizmga qarshi safarbar qilinishida ayollar rolini o'stirishda xotin-qizlar bo'limlari faoliyatidan keng foydalandi. Sovet tuzumi xotin-qizlar bo'limlarini bir necha bor tugatib, «vaziyat talab etgan vaqtda» yana qaytadan tashkil etgan.²

Xotin-qizlar matbuoti hisoblangan «Kommunistka» jurnalining 1930- yilda va «Yangi yo'l» jurnalining 1934- yilda chop etilishi to'xtatilgach, xotin-qizlar o'rtasida olib boriladigan ishlarning butun mas'uliyati Mehnat va turmushni yaxshilash komissiyalari zimmasiga yuklangan, Komissiya tarkibida respublika bo'yicha 100 dan ortiq a'zo bo'lib, ular komissiya zimmasidagi ishlarni bajarish imkoniyatidan yiroq edi. Shuning uchun komissiyalar 1930- yil may oyida ittifoq, respublika, viloyat, shahar va joylardagi ijroiya qo'mitalariga aylantirilib, VKP(b) MQ ning 1932- yil 5 yanvardagi qarori bilan o'z vazifasini bajarib bo'lgan organ sifatida tugatilgan edi. Shundan so'ng xotin-qizlar bo'limlarining vazifalari firqa qo'mitasi va uning bo'limlariga o'tib, maxsus sektorga aylantirildi. Mazkur sektorlar 1934- yilgacha amalda bo'ldi, ularning zimmasiga sovet hukumati va kommunistik partiya tomonidan "xotin-qizlar masalasining hal etilganligi" haqidagi g'ayriilmiy xulosani ilmiy-amaliy jihatdan mustahkamlash vazifasi yuklatilgan edi.

Aslida, xotin-qizlar bo'limi faoliyatining tugatilishiga sabab sovet hukumati va kommunistik partiyaning xotin-qizlarni "iqtisodiy ozodlikka chiqarish" shiori ostida ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish, ular mehnatidan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish, ularni jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylantirishga norozilik o'laroq ayollarning o'z haq-huquqlari uchun kurashishi, mustabid tuzum tomonidan olib borilayotgan siyosatdan norozilikning kuchayib borishida edi¹.

Shuning uchun ham kommunistik partiyaning XVII s'ezdi Ustaviga muvofiq partiya qo'mitalari qoshida ixtisoslashgan ishlab chiqarish bo'limlari tashkil etilgan bo'lsa-da, sy'ezd mazkur bo'lim tarkibida xotin-qizlar o'rtasida ish olib boruvchi sektor yoki bo'lim tuzish masalasini ko'rib chiqmadi.

¹ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. T.: «Sharq». 2010. 343-bet.

² Ko'rsatilgan adabiyot.... 344- bet.

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т.: "Шарқ", 2000. 442- бет.

Urush yillarida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning xalq xo'jaligidagi rolini o'stirish davr talabiga aylanganligi uchun xotin-qizlar bo'limlari 1943- yil may oyida VKP(b) ning qarori bilan qisqa muddatga qayta tashkil etildi, ular faoliyatida ishning yo'nalish, shakl va usullari ancha rivojlantirilib, murakkablashtirib borildi².

1943- yil 18 may oyida O'zKP MQ byurosi qarori asosida MQ apparatida xotin-qizlar o'rtasida ishlar bo'yicha bo'lim va bo'lim mudiri, viloyat, shahar va rayon partiya qo'mitalarida ham xotin-qizlar bo'limi sekretar(kotiba)lari lavozimi joriy etildi.

Bu bo'limlar turli tashkilotlar, fondlar orqali kasaba uyushmalari, boshqa jamoat tashkilotlariga tayanib ommani boshqargan. Mazkur tashkilotlar qonunan mustaqil bo'lsalar-da, aslida, partiyaning ko'rsatmalariga to'liq amal qilgan, "partiya davrimizning aql-idroki, shon-sharafi va vijdoni" shiori ostida uning siyosatini amalga oshirgan.

Xotin-qizlar bo'limlari tashabbusi bilan ayollarning urush sharoitidagi vazifalariga bag'ishlangan xotin-qizlar kengashlari jamoa xo'jaliklarida, konferensiyalar esa tumanlarda o'tkazilgan. 1943-yil iyul - avgust oylarida Farg'ona viloyatining shahar va rayonlarida xotin-qizlarning urush kunlarida jamiyat hayotidagi roliga bag'ishlangan kengashi bo'lib o'tgan. Shu yili oktabr oyida Farg'onada xotin-qizlar bo'limi xodimlarining viloyatlararo yig'ilishi bo'lgan: Viloyat bo'yicha 1943 -yil avgust - sentabr oylarida bo'lib o'tgan kengash va konferensiyalarda jami 20 538 nafar xotin-qiz ishtirok etgan. Mazkur yig'ilishlarda xotin-qizlar bo'limlarining ish usuli va uslublari, xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish masalalari muhokama etilgan. Maxsus targ'ibot-tashviqot joylari tashkil etilib, xotin-qizlar front va xalq xo'jaligida yuz berayotgan yangiliklardan xabardor qilib borilgan¹.

VKP(b) MQning 1943- yil 22 yanvardagi qaroriga muvofiq 1943- yilning may oydan boshlab respublika partiya qo'mitalari qoshida xotin-qizlar sovetlari tashkil etilgan, ularga viloyat partiya qo'mitalarida obkom sekretarlari (viloyat kotiblari)ning o'rinbsarlari, shahar va rayon partiya qo'mitalarida xotin-qizlar ishlari bo'yicha sekretarlar rahbarlik qilgan. Butun respublikada bu sohaga mas'ul sifatida viloyat partiya qo'mitalarida 10 ta sekretar yordamchisi, shahar partiya qo'mitalarida 13, shahar tarkibidagi rayon partiya qo'mitalarida 11, qishloq rayon partiya qo'mitalarida 133 kotiba tayinlangan edi. Yangi tashkil topgan bu tashkilotlar zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan edi:

- xotin-qizlar o'rtasida partiyaviy-siyosiy va ommaviy-tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish;
- xotin-qizlarning front va front orqasini har tomonlama mustahkamlashga qaratilgan mehnatlarini uyushtirish;
- jangchilarning oilalariga zarur bo'lgan yordamni tashkil etishga ko'maklashish.

Xotin-qizlar bo'limlarining amaliy ko'magida Toshkent shahrida 1943- yil iyundan 1944- yil may oyiga qadar ishlab chiqarish korxonalariga 15 270 nafar xotin-qizlar ishga joylashtirildi, ulardan 700 nafari o'qishga yuborildi. 1944- yil oxiriga kelib Toshkent, Buxoro va Samarqand viloyatlarida 35 ming nafar xotin-qiz ishga joylashtirilib, 26 ming nafari sanoat korxonalariga jalb etildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida xotin-qizlar mamlakat iqtisodiy salohiyatini bir maromda saqlashda yetakchi kuchga aylandi, ular favqulodda sharoitda inson, ishchi-xizmatchi, rahbar sifatida o'zlarini namoyon etdilar.

1941-yil 9-sentabrda Toshkent shahri partiya tashkilotining urush davri sharoitidagi ishi to'g'risidagi qarorida, O'z KP(b) MQ ning 1941- yil dekabr oyidagi Plenumida, 1942-yil 21 apreldagi Andijon viloyati partiya faollari yig'ilishida harbiy vaziyatda partiyaviy siyosiy ishlarni tashkil etish masalasi muhokama qilinib, ko'plab xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etila boshlandi. Xotin-qizlar partiya va boshqa sovet tashkilotlarining mas'ul lavozimlarini egalladilar. Jumladan, Namangan viloyati Olmos qishlog'idan Masturaxon Ismatova Chust rayon ijroiya qo'mitasi raisi, Qoraqalpog'iston ASSR Shobboz tumanida esa 52 nafar ayol jamoa xo'jaligi raisi o'rinbosari lavozimida ishlagan. Urushdan oldingi yillarda rahbarlik lavozimida

² Ko'rsatilgan adabiyot.... 445- bet.

¹ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. T.: «Sharq». 2010. 347-bet.

band xotin-qizlar salmog'i respublika bo'yicha atigi 280 nafarni, ya'ni jami rahbar xodimlar tarkibining 1,2 foizini tashkil etar edi¹.

1943- yilda respublika bo'yicha 3458 nafar xotin-qiz jamoa xo'jaligi raisi o'rinbosari, 11 950 nafar xotin-qiz jamoa xo'jaliga brigadiri, 48 772 nafar xotin-qiz zveno boshlig'i lavozimida mehnat qilishgan bo'lsa, 1944- yilda O'zbekistonning to'rt viloyati (Samarqand, Buxoro, Namangan, Xorazm) va Qoraqalpog'istonda jamoa xo'jaligi raisi o'rinbosari lavozimiga 3,5 ming xotin-qiz tayinlangan.

Buxoro viloyatda 1944- yilda 47 nafar xotin-qiz brigadir, 3641 xotin-qiz zveno boshlig'i bo'lib ishlagani ma'lum. 1945- yil mart oyida viloyat qishloq xo'jaligida 259 nafar ayol brigadir, 3623 nafar ayol zveno boshlig'i, 1147 nafar ayol brigada hisobchisi sifatida faoliyat yuritgan. 1944-yilda birgina Farg'ona viloyati Oxunboboev rayonida xotin-qizlardan 17 ta brigadir, 64 ta zveno boshlig'i bor edi. Farg'ona rayonida 6 ta brigadir va 310 ta zveno boshlig'i ayollardan tayinlangan. Qo'qon rayonida 1944- yilning fevral oyida 17 nafar xotin-qiz jamoa xo'jaligi rahbarligiga tayinlangan.

Surxondaryo viloyatida 1941- yildan 1944- yilgacha 427 nafar xotin-qiz rahbarlik lavozimlariga tayinlangan. 1943-yilda respublika bo'yicha xotin-qizlardan 3458 kishi jamoa xo'jaligi raisi o'rinbosari, 11 950 kishi brigada boshlig'i, 48 772 kishi zveno boshlig'i bo'lib ishlagan.

Namangan viloyatidan Zaynabxon Ibrohimova urush yillarida Uychi rayoni "K. Marks" nomli, Naziraxon Rustamova "Baynalmilal" nomli jamoa xo'jaligi raisi o'rinbosari lavozimida ishlagan. Ko'pchilik ayollar brigadirlik qatnashgan (Halimaxon To'xtaboeva, Azizaxon Bo'ronova, Oyxon Abdullayeva, Naziraxon Rustamova). 1958- yilda viloyat bo'yicha jami 61 nafar o'zbek ayoli hisobchi lavozimda faoliyat ko'rsatgan.¹

1943 - yilda Xorazm viloyatida 81 nafar jamoa xo'jaligi raisi, 334 nafar ayol rais o'rinbosari, 133 nafar ayol firma mudiri, 77 nafar ayol brigadir, 744 nafar ayol zveno boshlig'i vazifalarida faoliyat yuritgan. Umuman olganda, O'zbekistonda urush yillarida 64 dan ziyod xotin-qiz jamoa xo'jaliklarda rahbarlik lavozimlariga tayinlangandi.

Sobiq Ittifoq davrida "xotin-qizlar masalasining hal bo'lganligi" haqidagi g'ayriilmiy xulosa sovet hukumati va kommunistik partiyaning xotin-qizlarni "iqtisodiy ozodlikka chiqarish" shiori ostida ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish, ular mehnatidan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish orqali jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylantirishga imkon yaratdi.

Mahalliy xotin-qizlarni ishlab chiqarishga keng jalb etish, avvalo, mustabid tuzumning iqtisodiy bazasini mustahkamlash uchun zarur edi. "Sotsializm mamlakatlaridan bo'lak jahondagi hech bir mamlakatda ishlovchi xotin-qizlar foizi bunchalik yuqori bo'lmagan".

1940- yil iyun oyida qabul qilingan O'zKP MQning "O'zbekistonda xotin-qizlarni iste'mol kooperatsiyasi tizimi ishiga jalb qilish tadbirlari to'g'risida" gi qarorida ta'kidlanishicha, bir yil davomida 10 ming nafardan kam bo'lmagan xotin-qizlarni, eng avvalo, mahalliy millat ayollarini ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish orqali iste'mol kooperatsiyasida ishlovchilarning umumiy tarkibida ularning ulushini 35 foizdan kam bo'lmagan darajaga yetkazish birlamchi vazifa sifatida belgilab qo'yilgandi¹.

1940- yil dekabr oyida respublika iste'mol kooperatsiyasida band xotin-qizlar soni 8863 nafarga yetdi, ularning 3135 nafari mahalliy millat ayollariga mansub edi. Shuningdek, bu sohada band ayollarning 482 nafari kommunist ayollar, 1208 nafari komsomol qizlar tashkil etgan. Ayni kommunist va komsomol xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga yanada kengroq jalb qilishdan ko'zlangan maqsad xotin-qizlar orasida kommunistik partiyaning siyosiy nayranglarga to'la maqsad-manfaatlarini amalga oshirishdan iborat edi.

1940-yil 9-iyulda O'zbekiston komsomol yoshlar uyushmasi kengashi ("O'zbekistonda xotin-qizlarni istemol kooperatsiyasi tizimi ishiga jalb qilish tadbirlari to'g'risida") O'zKP

¹ Пулатов И. Буюк ғалабада Ўзбекистон ҳиссаси. Т.: Ўзбекистон. 1974. 56- бет.

¹ Y.F. G'ulomov.R.N.Nabievov. M.F. Vaxobov.O'zbekiston S.S.R Tarixi Toshkent 1958 –yil 178-bet.

¹ Пулатов И. Буюк ғалабада Ўзбекистон ҳиссаси. Т.: Ўзбекистон. 1974. 68- бет.

MQning 1940- yil 1 iyundagi qaroridan kelib chiqib, 3 ming nafar komsomol qizlarni O'zbekiston iste'mol kooperatsiyasi tizimida o'qitish kurslariga jalb etish haqida maxsus qaror qabul qildi. Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida respublika komsomol xotin-qizlaridan 1500 nafari bir oylik kurslarni yakunlagach, tuman va qishloqlarga - 225 nafari Toshkent viloyatiga, 227 nafari Samarqand viloyatiga, 525 nafari Farg'ona viloyatiga, 300 nafari Buxoro viloyatiga, 105 nafari Xorazm viloyatiga yo'llanma oldilar. Shunday qilib, iqtisodiy xo'jalikda talab qilingan ishchilar safi mahalliy millat xotin-qizlari hisobidan to'ldirildi.

1941- yil 22 iyunda boshlangan fashistlar Germaniyasiga qarshi urush yillarida o'zbek xotin-qizlarining xalq xo'jaligidagi ishtiroki yuqori darajaga ko'tarildi. Ular xalq xo'jaligining barcha sohalarida faol tarzda qatnashib, frontga ketgan erkaklar o'rniga ham mehnat qildilar. Front ortida minglab xotin-qizlar **“Hamma narsa front uchun!”**, **“Hamma ona Vatan himoyasiga”**, **“Front ortida frontdagidek!”**, **“Faqat olg'a va olg'a!”**, **“Topshiriqni bajarmay turib ishdan ketma!”** shiorlarga javoban yuksak mehnat jasoratlari ko'rsatdilar¹.

Urushning ikkinchi kunidan boshlab Toshkent shahridagi barcha korxonalarda, mahallalarda va boshqa jamoat joylarida ko'p ming kishilik mitinglar bo'ldi, shahar aholisi Vatanni himoya qilish uchun, qayerda bo'lmasin, jang maydonidami, mehnatdami, tayyor ekanliklarini namoyon qildilar.

1941- yil 26 iyunda Toshkent to'qimachilik kombinatida ko'p ming kishilik miting o'tkazildi, mitingda ayollar o'z zimmlariga oshirilgan majburiyatlarni qabul qilganliklari ta'kidlandi. Shaharda **“O'zing va frontga ketgan o'rtog'ing uchun ishla!”** degan shior keng quloch yoydi. 4-iyulda Toshkent shahar Oktabr rayoni xotin-qizlarning **“Har qanday vaziyatda ham erkaklar o'rnini egalla!”**, **“Mehnat frontidagi stanok sari!”** 15 ming kishilik mitingida respublika xotin-qizlariga qarata murojatnoma qabul qilindi. Unda: **“...Aziz opa-singillar! Erimiz, akamiz, ukamiz va o'g'illarimizning stanok yonidagi, kombayn rulidagi va daladagi o'rnini egallaylik”**, deyilgan edi. Uy bekasi Oysha Yusupovanning frontdagi g'alabani ta'minlashga front ortida hissa qo'shamiz, degan da'vati ko'pchilik xotin-qizlarni Vatan himoyasini o'z mehnati bilan mustahkamlashga undadi. Mazkur murojaatnoma va da'vatnomalardan so'ng poytaxt xotin-qizlari frontga jo'natish va ishga joylashtirish haqida shahar partiya qo'mitasi va davlat organlariga ariza bera boshladilar. Birgina 22 - 26 iyunda shahar bo'yicha 1551 nafar xotin-qizlar frontga jo'natishni, Oktabr rayoni bo'yicha 1-15 iyulda 7508 nafar xotin-qizlar ishga joylashtirishni so'rab ariza berganlar².

1941- yil iyulda **“Pravda”** gazetasida **“SSSRning xamma xotin-qizlariga”** murojaatnoma e'lon qilindi. Murojaatnoma mohiyati ayollarni erkaklar o'rnini egallagan holda front ortida mehnat qilishga safarbar etishga bag'ishlangandi. Shundan so'ng respublikaning korxona va tashkilotlarida xotin-qizlarni **“erkaklar kasbi”ga** o'rgatish harakati keng avj oldi.

Xotin-qizlarni ommaviy kasb-hunarlariga o'rgatish bo'yicha texnikum va MTSlarda sanoat hamda qishloq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlashning 1 va 6 oylik qisqa muddatli kurslari, 10 kunlik seminarlar, stexanovchilar maktablari tashkil etildi. Natijada urushning 3 yili davomida 103 ming nafar ishchi ayol tayyorlandi. Ular og'ir jismoniy mehnat talab qiladigan ishlab chiqarishga jalb qilindi. Xususan, 1700 nafar o'zbek xotin-qizlari Angren ko'mir konida ishlay bolashdi. 1942- yil 13 fevraldagi O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoni bilan ishlamayotgan mehnatga layoqatli ayollar, o'smir yoshlar va nafaqaxo'rlar hisobiga ishchilar safi yanada to'ldirildi.

1941- yil 15 oktabrda Toshkent shahrining 42 ta sanoat korxonasiga 11 ming nafar ishchi ishga qabul qilingan bo'lib, ularning 8 ming nafari xotin-qizlardan iborat edi. Xotin-qizlarni sanoat korxonalariga ishga jalb qilishda partiya faollaridan J. Obidova, F. Yo'ldoshboeva kabi o'zbek ayollari fidoyilik ko'rsatdi¹.

Urush yillarida markazdan O'rta Osiyoga evakuatsiya qilingan jami 308 ta korxonaning

¹ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. T.: «Sharq». 2010. 356-bet.

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. Т.: “Шарк”, 2000. 448- бет.

¹ Адхам Раҳмат. Шинелли кизлар кассаси. Т.: “Ёш гвардия”, 1964. 36- бет.

104 tasi O'zbekistonga; ulardan 55 ta korxona Toshkent va Toshkent viloyatiga joylashtirilgandi. Toshkentga ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalaridan biri Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi edi, mazkur zavod uch oy ichida katta tashkilotchilik ishlari tufayli yetakchi kadrlar bilan ta'minlanib, to'la quvvat bilan ishlay boshladi. Umumiy ishchilar sonining 70 foizi yangi ishga qabul qilingan kadrlar bo'lib, shulardan 362 nafari o'zbek xotin-qizlari edi. Tajribali ishchilarning frontga ketishi natijasida vujudga kelgan kadrlar taqchilligi yangi kelgan, tajriba va mehnat malakasiga ega bo'lmaganlarni g'oyat qisqa muddat ichida turli ishlab chiqarish kasblariga o'rgatish va o'qitish yo'li bilan to'ldirib borildi.

O'zbek xalqi gitlerchilarga qarshi koalitsiyadagi boshqa xalqlar bilan yelkama-yelka bir safda turib "jigarrang vabo'ni yo'q qilishga munosib hissa qo'shdi. Uning ko'rsatgan jasoratani faqat erksiz harakat tarzida, ma'murlarning o'ch olishi oldida qo'rqishning oqibati deb tasavvur qilish, jang maydonlarida halok bo'lganlar xotirasini haqoratlash, mamlakat ichkarisidagi millionlab mehnatkashlarning fidokorona mehnatini nazar-pisand qilmaslik, Vatanni asrash va himoya qilishdan iborat buyuk insoniy fazilatlarini namoyish qilgan keng xalq ommasining mislsiz qahramonliklarini kamsitishdan iboratdir.

Fashist zolimlariga qarshi kurashda O'zbekiston xalqining faol ishtirok etishi uning milliy ruhining qudratli mamlakatda ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish joriy etildi. Katta yoshdagilar uchun ish kuni olti kunlik ish haftasida 11 soatgacha uzaytirildi. Haqiqatda esa u 12—14 soatga yetar edi. Ta'tilga chiqish bekor qilindi. Bu hol ishchi xizmatchilarning sonini ko'paytirmasdan turib ishlab chiqarish quvvatlari hajmini taxminan 1/3 ga oshirish imkonini berdi.

Kadrlarning keskin suratda tanqisligi, sanoat xom ashyosi, yoqilg'i, dastgohlar, asboblari nihoyatda yetishmasligiga qaramasdan, 1941-yil dekabrga kelib, Toshkentdagi 63 ta korxona va respublikadagi boshqa 230 ta korxona mudofaa mahsulotlari bera boshladi. Ular orasida parovoz ta'mirlash zavodlari, Chirchiq elektr-kimyo kombinati va boshqa korxonalar bor edi. To'qimachilik va tikuvchilik sanoati ham front ehtiyojlariga xizmat qilishga kirishdi¹.

Og'ir urush davrida rivojlanayotgan sanoatni ishchi kuchi bilan ta'minlash vazifasi ayniqsa keskin bo'lib turdi. Ko'p minglab tajribali ishchilarning frontga ketishi natijasida vujudga kelgan juda katta yetishmovchilik sanoat korxonalariga yangi kelgan va tajribaga, mehnat malakasiga ega bo'lmaganlarni g'oyat qisqa muddat ichida turli ishlab chiqarish kasblariga o'rgatish va o'qitish yo'li bilan to'ldirib borildi. Shuningdek, O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1942-yil 13-fevraldagi Farmoni bilan urush davrida ishlamayotgan mehnatga layoqatli aholi — xotin-qizlar, o'smirlar, nafaqaxo'rlarni safarbar qilish hisobiga ham ishchilar safi kengayib bordi. (1-ildovaga qarang)

Sanoat ishlab chiqarishiga xotin-qizlar ayniqsa faol jalb qilindi. Agar 1940 yilda sanoatda ishlovchilar orasidagi xotin-qizlar salmog'i 34,0%ni tashkil etgan bo'lsa, 1942- yilga kelib bu ko'rsatkich o'sib, 63,5%ga yetdi.

Respublika ishchilar sinfining keskin ortib borishi asosan yoshlar hisobiga ro'y berdi. Yoshlardan ishchi kadrlar tayyorlashda mehnat rezervlari tizimi salmoqli ro'l o'ynamog'i kerak edi. Ana shu maqsadda 1942- yilning oxirda qo'shimcha 31 ta FZO (fabrika-zavod ta'limi) maktabi ochildi, ularda ta'lim oluvchilar 15320 o'quvchidan iborat bo'lib, 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar edi. Ana shu vaqtga kelib respublikada jami 14 ta hunar maktabi va 45 ta FZO maktabi ishlab turdi. Ularda ta'lim berish jadallashgan dastur bo'yicha olib borildi. Urushning dastlabki bosqichida ishchilarni qisqa muddatli kurslarda ommaviy tayyorlash, yakka tartibda va brigada shogirdligi usullari bilan tayyorlash ayniqsa keng quloch yozdi. Urush davrining 17 oyi ichida yoshlardan (14, 17 yoshlilar) ommaviy kasblar bo'yicha 23300 ishchi tayyorlandi.

Biroq urush va iqtisodiyotning barcha qiyinchiliklariga qaramay, mamlakat xalqlari asosiy vazifani hal qilishga muvaffaq bo'ldilar: SSSR iqtisodiy salohiyatining yarmini yo'qotgan

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мушамлакачилиги даврида. Т.: "Шарк", 2000. 444- бет.

bo'lsa-da, qurollanish poygasida g'alabaga erishdi. Dushmanni tor-mor keltirishning moddiy-texnik sharoitlarini yaratishda mamlakatdagi, shu jumladan, O'zbekistondagi millionlab mehnatkashlarning mehnati hal qiluvchi ahamiyatta ega bo'ldi. Ularni bo'lajak g'alabaga ishonch ilhomlantirgan, yot bosqinchilarga bo'lgan chuqur g'azab-nafrat g'ayratlantirgan edi. «Toshtram» vagon ta'mirlash zavodining temir randalovchisi Pushkareva ikki stanokda ishlab, 1941-yilning iyul kunlarida ishlab chiqarish topshirig'ini 350—470% dan ado eta boshladi. «Toshselmash» qoliplovchilar brigadasi jangovar

holatda turib ishlab, kundalik ishlab chiqarish rejasini 260—300% qilib bajardi. Shuningdek, Namangan viloyatidagi «Yangi turmush» hunarmandchilik artelining a'zolari Qirg'izboev, Yusupov, Nishonov, Hamroyev, Qodirov va boshqalar ishlab chiqarish topshiriqlarini 500% qilib bajara boshladilar.(2- ilovaga qarang)

Ochlik va nihoyatda charchab-toliqishdan sillasi qurishiga qaramasdan sanoat xodimlari frontni qurol-yarog', jangovar texnika, moddiy resurslar bilan ta'minlash uchun bor imkoniyatlarini ishga solardilar. Ular urush davomida frontga 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2318 ming dona aviabomba, 17100 ta minomyot, 4500 birlikdan iborat minalarni yo'q qiluvchi qurol, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 mln. dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln. dona granata, dala radiostansiyalari uchun 3 mln. radio lampa, qariyb 300 mingta parashut, 5 ta bronopoyezd, 18 ta harbiy-sanitariya va hammom-kir yuvish poyezdi, 2200 ta ko'chma oshxona va boshqa ko'pgana harbiy anjomlar yetkazib berdilar. Faqat respublika yengil sanoat xalq komissarligi korxonalarining o'zi 1941-1945 yillar mobaynida 7518,8 mintta gimnastyorka, 2636,7 mingga paxtali nimcha, 2861,5 mingta armiya etigi tayyorlab berdilar¹.

Dushmanni tor-mor keltirish uchun olib borilgan umumxalq kurashida o'zbek dehqonlari faxrli o'rin tutdilar.

Bu vazifalarni hal qilish bir qator omillar tufayli murakkablashib ketgan edi. Birinchidan, Markazning ko'p yillardan buyon paxta yakkahokimligini o'tkazib kelayotganligi sababli respublika dehqonchiligidan butun tarkibi asosan paxta yetishtirishga moslashtirilgan edi. Don ekinlari yetishtirish ikkinchi darajali o'rin egallardi. G'alla asosan RSFSR va Ukrainadan tashib keltirilardi G'alla yetishtiradigan rayonlarni dushman bosib olganligi O'zbekistonning agrar tarmog'i oldiga respublikani o'z g'allasi bilan o'zini ta'minlash vazifasini qo'ydi. Holbuki, buning uchun zarur texnika, mutaxassislar yo'q edi, ajdodlar tajribasi ancha unutilgan edi. Buning ustiga stalincha ma'muriyat O'zbekiston rahbariyati oldiga «oziq-ovqat bilan o'zini-o'zi ta'minlash» vazifasini qo'yar ekan, aslo paxta ekishni kamaytirishni istamasdi, paxtachilik o'lka qishloq xo'jaligining yetakchi yo'nalishi sifatida qaralardi, uni yetishtirishni ko'paytirish zarur edi. Chunki urush sharoitida paxta mudofaa sanoati uchun g'oyat muhim hom ashyo hisoblanardi.

Ikkinchidan, urush boshlanishi bilan agrar ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasi zaiflashib qolgandi. Ob'ektiv voqeliklar tufayli MTS, kolxozlar, sovxozlarning transport vositalari izchillik bilan qisqarib bordi. Traktorlar va boshqa qishloq xo'jalik mashinalari yetkazib berilishi amadaa to'xtatildi. Agrar korxonalarni ehtiyot qismlar, o'g'itlar va yonilg'i bilan ta'minlash keskin kamaytirildi. Natijada qo'l mehnatining ulushi haddan tashqari ortib ketdi, ot-o'lov bilan bajariladigan ishlar hajmi ko'paydi. Asosan sigirlar bilan yer haydalardi. Ota-bobolarimizdan qolgan omoch kabi oddiy mehnat qurolidan keng foydalanildi.

Uchinchidan, kadrlar masalasi sezilarli ravishda keskinlashdi. Urush frontga malakali kadrlar va mehnatga layoqatli qishloq aholisining anchagina qismini jalb qilgan edi. 155 mingdan ortiq ishga yaroqli o'zbekistonliklar mehnat batalonlariga (trudoviklar) mardikor sifatida safarbar qilinib, Rossiyaning harbiy sanoati va qurilish ishlariga yuborildi. Buning natijasida 1941—1942 yillardayoq O'zbekistonda mehnatga layoqatli kolxozchilarning soni 20%, 1945-yilga kelib deyarli 40% qisqardi. Ayniqsa mehanizatorlar korpusi sezilarli suratda qisqardi. Masalan, agar urushning boshlarida mehanizatorlar va kombaynchilarning umumiy soni

¹ Собирова Д. Ўзбекистонда хотин –қизлар масаласи тарихидан. (XX асрнинг 40-80- йиллари).Т.: «Akademnashr», 2011. 20- бет.

27888 kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1942- yilda esa ularning soni 2775 kishiga tushib qoldi, 1943- yilga kelib bundan ham kamayib ketdi. Ishlab chiqarishga xotin-qizlar, keksalar, o'smirlar keng jalb qilindi, ular hisobiga sanoatda bo'lgani kabi, qishloq xo'jaligida ham erkaklar o'rnini anchagina qoplandi¹.

O'zbekiston qishloq mehnatkashlari oziq-ovqat ekinlaridan bo'lgan kungaboqar yetishtirishni muvaffaqiyatli o'zlashtirdilar, shuningdek, zig'ir va kanop singari texnika ekinlarini ham yetishtira boshladilar, makkajo'xori, kunjut yetishtirishni keskin ko'paytardilar. Xususan, 1942- yilda respublikadagi kunjut ekilgan maydonlar butun SSSRdagi kunjut ekiladigan maydonlarning 50%ini tashkil qilgan edi.

Ipakchilik urush yillarida muhim strategik ahamiyat kasb etdi. Dehqonlar bu tarmoqni yuksaltirish uchun g'ayratlarini sarflashdi.

Urush yillarida mudofaa va xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi muhim tarmoqlaridan biri chorvachilik edi. Lekin bu tarmoq Sovet davlatining dastlabki yillarida yo'l qo'ygan jiddiy xatolari tufayli hali o'zini o'niglab olishga ulgurmagan, urush boshlanishidan e'tiboran esa yana katta qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan edi. Natijada respublikada chorva mollari soni keskin qisqarib ketdi. Agar 1941- yil 1 yanvarda jamoat sektorida 8403,1 ming bosh chorva mollari bo'lgan bo'lsa, 1944- yil 1 yanvarga kelib bu raqam 7798,9 ming boshga tushib qoldi. Shuningdek, shaxsiy sektorda ham sezilarli qisqarishlar ro'y berdi. 1941- yil 1 yanvarda shaxsiy foydalanishdagi barcha tur-dagi chorva mollar soni 3249,7 ming boshni tashkil qilgan bo'lsa, 1944-yilga kelib ular soni 1385,8 ming boshga tushib qoldi, yoki 1941-yildagi miqdorning 46,2%i qolgan edi.

Urush yillari mobaynida respublika dehqonlari davlatga 4 mln. 148 ming paxta, 82 mln. g'alla, 54067 t. pilla, 195 ming t. sholi, 57 ming 444 t. meva, 36 ming ta. quritilgan meva, 159 ming 300 t. go'sht, 22 ming 300 t. jun va boshqa ko'pgina mahsulotlar yetkazib berdilar. Bu O'zbekiston qishloq mehnat-kashlarining o'zi yemay-ichmay, dushmanni tor-mor qilish uchun umumxalq kurashiga qo'shgan munosib hissasi edi¹.

1941- yil 26 iyunda Toshkent to'qimachilik kombinatida ko'p ming kishilik miting o'tkazildi, mitingda ayollar o'z zimmlariga oshirilgan majburiyatlarni qabul qilganliklari ta'kidlandi. Shaharda "O'zing va frontga ketgan o'rtog'ing uchun ishla!" degan shior keng quloqchilik topdi. 4-iyulda Toshkent shahar Oktabr rayoni xotin-qizlarning "Har qanday vaziyatda ham erkaklar o'rnini egalla!", "Mehnat frontidagi stanok sari!" 15 ming kishilik mitingida respublika xotin-qizlariga qarata murojatnoma qabul qilindi. Unda: "...Aziz opa-singillar! Erimiz, akamiz, ukamiz va o'g'illarimizning stanok yonidagi, kombayn rulidagi va daladagi o'rnini egallaylik", deyilgan edi. Uy bekasi Oysha Yusupovanning frontdagi g'alabani ta'minlashga front ortida hissa qo'shamiz, degan da'vati ko'pchilik xotin-qizlarni Vatan himoyasini o'z mehnati bilan mustahkamlashga undadi. Mazkur murojaatnoma va da'vatnomalardan so'ng poytaxt xotin-qizlari frontga jo'natish va ishga joylashtirish haqida shahar partiya qo'mitasi va davlat organlariga ariza bera boshladilar. Birgina 22 - 26 iyunda shahar bo'yicha 1551 nafar xotin-qizlar frontga jo'natishni, Oktabr rayoni bo'yicha 1-15 iyulda 7508 nafar xotin-qizlar ishga joylashtirishni so'rab ariza berganlar.

1941- yil iyulda "Pravda" gazetasida "SSSRning xamma xotin-qizlariga" murojaatnoma e'lon qilindi. Murojaatnoma mohiyati ayollarni erkaklar o'rnini egallagan holda front ortida mehnat qilishga safarbar etishga bag'ishlangandi. Shundan so'ng respublikaning korxona va tashkilotlarida xotin-qizlarni "erkaklar kasbi"ga o'rgatish harakati keng avj oldi¹.

Samarqand shahridagi "Kolxozchi" zavodining ishchilari birinchilardan bo'lib korxonada xotin-qizlarni bevosita stanok oldida turib ishlashga o'rgatish tashabbusi bilan chiqishi natijasida

¹ Хайдарова Ф. В.И. Ленин ва совет шарқи хотин-қизлари. Ўз КП МК Бирлашган нашриёти. 1969. 22-б.

¹ Зиёев Х. Тарих – ўтмиш ва келажак кўзгуси. – Т.: Адабиёт ва санъат. 2000. – 156 б.

¹ Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. -Т.: Фан. 1975. -211 с.

35 nafar uy bekasi tokar va slesarlik kasbini egallagan. Shunday qilib, respublika ishlab chiqarish korxonalarida xotin-qizlarning nisbati yildan-yilga ortib borgan. Agar bu ko'rsatkich 1940-yilda 34 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1942- yilda 50 foiz, 1943- yilda esa 63 foizga yetgan.

1941- yil 3 iyulda Buxoro mehnatkashlarining ko'p ming kishilik mitingida ham xotin-qizlar erkaklar o'rnini egallashga da'vat etildi. Chaqiriqqa barchilardan bo'lib qo'shilgan Kogon temir yo'l ishchi xotin-qizlari 100 kishi qisqa fursatda erkaklar o'rnini egallab, temir yo'l qatnovining bir maromda davom etishiga hissa qo'shdilar. Stansiya navbatchisi, mashinist ayollar safi kengaydi. 1941-yil oxirigacha viloyatdagi 5 mingdan ortiq xotin-qiz erkaklar stanoklarini egalladi. 1943-yilga kelib viloyatda sanoatdagi ishchi-xizmatchilarning 82 foizini xotin-qizlar tashkil qildi.

Xotin-qizlarni ommaviy kasb-hunarlariga o'rgatish bo'yicha texnikum va MTSlarda sanoat hamda qishloq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlashning 1 va 6 oylik qisqa muddatli kurslari, 10 kunlik seminarlar, stexanovchilar maktablari tashkil etildi. Natijada urushning 3 yili davomida 103 ming nafar ishchi ayol tayyorlandi. Ular og'ir jismoniy mehnat talab qiladigan ishlab chiqarishga jalb qilindi. Xususan, 1700 nafar o'zbek xotin-qizlari Angren ko'mir konida ishlay bolashdi. 1942- yil 13 fevraldagi O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoni bilan ishlamayotgan mehnatga layoqatli ayollar, o'smir yoshlar va nafaqaxo'rlar hisobiga ishchilar safi yanada to'ldirildi.

1941- yil 15 oktabrda Toshkent shahrining 42 ta sanoat korxonasiga 11 ming nafar ishchi ishga qabul qilingan bo'lib, ularning 8 ming nafari xotin-qizlardan iborat edi. Xotin-qizlarni sanoat korxonalariga ishga jalb qilishda partiya faollaridan J. Obidova, F. Yo'ldoshboeva kabi o'zbek ayollari fidoyilik ko'rsatdi.

1941- yil sentabrda O'zKP MQ byurosi shahar sanoat korxonalarini qurol-aslaha ishlab chiqarishga o'tkazish haqida qaror qabul qilgach, 1942-yilda shaharda mavjud 137 ta korxonaning 64 tasi harbiy mahsulot ishlab chiqarishga o'tdi. Harbiy ishlab chiqarishni yanada o'stirish yangi texnologiyalarni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish ulkan qiyinchiliklarni yengishga bog'liq edi. Davlat organlarining ma'muriy-buyruqbozlik asosida xo'jalikni boshqarishi, ayniqsa, urush yillarida avjiga chiqdi. Hukumat organlari tomonidan o'rta tashlangan asosiy vazifa — mavjud imkoniyatlar bilan hisoblashmasdan, kishilarning jismoniy va ruhiy kuch-quvvatlari qancha sarflansa ham, holdan to'g'ri ishlab, rejani albatta bajarishni talab etar edi. Og'ir mehnat yuki asosan ayollar va yoshlar zimmasiga tushdi. Sovetlarning ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv usuli asosidagi tazyiq va sinovlar oqibatida xotin-qizlar mavjud muhitga moslashishga majbur bo'lganlar. O'zlari bilib-bilmay sotsialistik xalq xo'jaligi zarbdori bo'lishga intilganlar¹.

Urush yillarida ham musobaqalar tashkil etish orqali xotin-qizlarning ishlab chiqarishdagi imkoniyatlariga zo'r berish harakatlari davom etdi. Jumladan, Toshkent to'qimachilik kombinati ishchisi Idrisova rejani ortig'i bilan bajarib, 1 oyda 1 tonna paxta titishga muvaffaq bo'ldi. To'quvchi M. Nosirova esa bir vaqtning o'zida 80 ta stanok bilan mehnat qilib, rejani ortig'i bilan bajardi. Volodarskiy nomli Andijon fabrikasi ishchisi A. S. Shumilova kunlik normani 3 va 3,5 baravar ortig'i bilan bajarishga muvaffaq bo'ldi. 1942-yil 30-mayda Andijon motorni remont qilish zavodi ishchisi A. Buyanchina hamkasblarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga chaqirib, kunlik normani 230 - 250 foizga oshirib bajargan. Andijon "Stroy Mashina" zavodi ishchilari ham kunlik normani 2-3 baravar ortig'i bilan bajarish tashabbusi bilan chiqqan.

"Tashselmash" zavodida G.Xalilova, X.Sharipova, Reshetnikova, "Toshtram"dan Pushkareva, "Bolshevik" artelidan opa-singil Ma'rufa, Mahnusa G'ofurova, to'qimachilik kombinatidan Muhabbat Nosirova, A'zamova va boshqalar kunlik normalarini 200 foiz qilib bajargan. 1233 nafar xotin-qizlar erkaklar kabi mehnat qilgan. Birgina "Tashselmash" zavodida 230 nafar xotin-qiz o'q-dori ishlab chiqarish sexida ishlagan. 1945-yil iyunda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining qarori bilan front ichkarisidagi mehnatkashlar uchun ta'sis etilgan "Ulug' Vatan

¹ Алимова Д.А. «Хужум»га зарурат бормиди? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1992 й. 11 сентябрь.

urushi yillaridagi shavkatli mehnati uchun. 1941 - 1945 yillar” medali bilan Toshkent shahri xotin-qizlari vakillari ham taqdirlangan. Mana shunday rag‘batlantirish orqali sun‘iy ravishda siyosiy tus berib tashkil etilgan musobaqalar ayollarning og‘ir mehnat ostida ezilishiga sabab bo‘ldi. Aslida, musobaqalar ishchilarni davlatga qo‘shimcha ishlab berishga majburlashning bir turi bo‘lgan, xolos. Ishchi ayollarning musobaqadagi ishtiroki ularning siyosiy ongiga berilgan baho bo‘lganligi bois ular hech bir imtiyozsiz jon-jahdi bilan normadan ortiq ishlashga, musobaqada yutishga majbur edilar. Musobaqalar mahalliy xotin-qizlarning sovetlar maqsadini amalga oshirishni sun‘iy jadallashtirishda muhim omil bo‘lib, sovetlarning “inqilobiy-byurokratik” tafakkur mantiqiga muvofiq miqdoriy ko‘rsatkichlar ortidan quvishning ifodasi edi.

Urushdan keyingi yillarda ham eng og‘ir yumushlar ayollar zimmasida bo‘ldi. Urushdan keyingi dastlabki 1945-1949 yillarda reshublikada xotin-qizlardan sanoat korxonalarida o‘zbek ayol ishchilar soni birgina Andijondagi Volodarskiy nomli fabrikada 3,5 baravar, “Strommashina” zavodida 3 baravarga ko‘paydi. Birinchi besh yillik (1929- 1933) davrida 18 mingga yaqin yangi ishchi ayol kadrlar tayyorlangan bo‘lsa, Samarqand viloyatida sanoat tarmoqlarida mahalliy millat vakillarining salmog‘i 1940 yil 7,1 foizdan 1948 yilda 19,7 foizgacha o‘sgan, jumladan, sanoat ishlab chiqarishda band ayollar soni 2,2 foizdan 40,6 foizgacha o‘sgan. 1951- yilda 105 400 ishchi xotin-qizlarning 7855 nafari yoki 7,4 foizini o‘zbeklar tashkil etdi. Chirchiq elektrokimyo kombinatida 24 nafar, Chirchiq sel’mash zavodida 14 nafar xotin-qiz mehnat qilgan.

Vatanga bo‘lgan muhabbatdan iborat muqaddas tuyg‘u og‘ir urush davrida O‘zbekiston xalqining ijtimoiy xulq-atvorini namoyon qiluvchi asosiy ma‘naviy talab, bu xalq vatanparvarligining bitmas-tuganmas manbai bo‘ldi. Shu bilan birga, gitlerchi bosqinchilarning bosib olingan hududlarda qilgan ashadiy jinoyatlari haqidagi, fashizm o‘zi bilan birga olib kelgan “yangi tartib” to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ham ommaning vatanparvarlik ruhiga ta’sir qiluvchi turtki bo‘ldi. Natijada vatanparvarlar harakati tobora chuqurlashib, chinakam umumxalq xususiyatini kasb etdi.

Fashist zolimlariga qarshi kurashda O‘zbekiston xalqining faol ishtirok etishi uning milliy ruhining qudratli mamlakatda ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish joriy etildi. Katta yoshdagilar uchun ish kuni olti kunlik ish haftasida 11 soatgacha uzaytirildi. .. Haqiqatda esa u 12—14 soatga yetar edi. Ta’tilga chiqish bekor qilindi. Bu hol ishchi xizmatchilarning sonini ko‘paytirmasdan turib ishlab chiqarish quvvatlari hajmini taxminan 1/3 ga oshirish imkonini berdi.

Biroq, ishchi kuchining yetishmasligi tobora sezilib bordi. Idora xizmatchilari, uy bekalari, o‘quvchilar ishlab chiqarishga jalb qilindi. 1941-yil dekabrda harbiy korxonalarning barcha xodimlari safarbar deb e’lon qilindi va mazkur korxonalarga birlashtirib qo’yildi. Mehnat intizomini buzganlar uchun jazo choralari keskin qo’yildi. Korxonalardan o‘zboshimchalik bilan ketib qolganlar 5 yildan 8 yilgacha muddat bilan qamoqqa hukm qilinardi. Biroq odamlar mamlakat ichkarisida, shu jumladan, O‘zbekistonda “yuqoridan” ortiqcha qistovsiz ozodlik va mustaqillik yo‘lida fidokorona mehnat qildilar¹.

Respublika hukumati 1941- yil sentabr-dekabrda O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarishni harbiy izga moslab qayta qurishning umumiy rejalarini belgilab berdi. qabul qilingan qarorlarda xalq xo‘jaligini qayta qurishga doir aniq vazifalar belgilangan bo‘lib, ularda sanoat korxonalarini mudofaa mahsulotlari ishlab chiqarishga o‘tkazish muddatlari ko‘rsatilgan, ichki resurslarni safarbar qilish sohasidagi choralar taklif qilingan edi.

O‘zbekistonga hammasi bo‘lib 104 ta zavod va fabrika evakuatsiya qilindi. Ular orasida Leningrad to‘qimachilik mashinalari zavodi, “Rosselmash”, “Qizil Oqsoy”, Sumsk kompressor va Dnepropetrovsk karborund zavodlari, Moskvadagi “Elektrokabel” va “Pod’emnik” zavodlari, Temir yo‘llar xalq komissarligining mashinasozlik zavodi, Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, “Krasniy put” zavodi, Kiyevdagi “Transsignal” zavodi, Stalingrad kimyo kombinati va boshqalar bor edi.

¹ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. T.: «Sharq». 2010. 359-bet.

Evakuatsiya qilingan zavod va fabrikalarni tiklashda talabalar, o'quvchilar, uy bekalari, fan va madaniyat xodimlari, xizmatchilar va kolxozchilar qo'lga belkurak, ketmon, lom olib charchash nimaligini bilmay mehnat qildilar. Urushdan oldingi vaqtda yillar mobaynida qilinadigan ishlar bu vaqtda kunlar va oylar mobaynida bajarildi. Chunonchi, "Rosselmash" zavodi 25 kunda, "Qizil Oqsoy" zavodi bu yerga yetib kelgandan keyin oradan 29 kun o'tganda mahsulot ishlab chiqara boshladi. 1941-yil dekabrda kelib evakuatsiya qatnashgan korxonalarining qariyb 50 tasi ishga tushirildi. 1942-yilning o'rtalariga kelib respublika industriyasi mamlakat sharqidagi harbiy sanoat bazasining tarkibiy qismi bo'lib qoldi. Respublikada harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sishi va rivojlanib borishi bilan bir qatorda xom ashyo va yoqilg'i energetika bazasini kengaytarish vazifasi ham keskin bo'lib turdi.

Urush rangli metallar qazib chiqarishni jadallik bilan ko'paytirishni zarur qilib qo'ydi. Shuning uchun ham 1942-yilda Langar molibden konini foydalanishga topshirish sohasidagi ishlar tez sur'atlar bilan boshlanib ketdi. Bu yerda misli ko'rilmagan qisqa muddatda molibden fabrikasi barpo etildi. Ayni vaqtda tosh konining ishlab chiqarish quvvati va Qoratepa rangli metallar konining quvvati keskin oshirildi. Olmalikka yirik qurilish ishlari avj oldirib yuborildi, bu yerda mis va boshqa rangli metallarning boy konlari topildi. Angren ko'mir razrezi respublikaning birinchi ko'mir markaziga aylandi. Hidroenergetika resurslarini ishga solish yuzasidan faol kuch-g'ayrat sarflandi. Masalan, 1942-yilning boshlarida Oqtepa va Oqqovoqdagi 1-son va 3-son gidrostansiyalar qurishni qayta tiklandi. Farhod GESni bunyod etish umumxalq hashar yo'li bilan boshlab yuborildi. Bu GESlarning respublika energetika tizimiga qo'shilishi elektr energiyasi ishlab chiqarishning birmuncha o'sishiga imkon berdi. 1942-1943 yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish 4 baravar ko'paydi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida urushning faqat ikki yili mobaynida O'zbekistonda ommaviy kasblarda 105673 sanoat ishchisi tayyorlandi, ulardan 73 ming nafari ishlab chiqarishning o'zida hunar egalladi. Buning natijasida ishchilar sinfining umumiy soni ortdi. Agar 1940- yil sentabrda respublika sanoatida 141,6 ming ishchi va xizmatchi band bo'lgan bo'lsa, urushning oxiriga kelib 196,2 ming ishchi va xizmatchi bor edi. Lekin bularning aksariyatini O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan korxonalar bilan birga kelgan ishchilar, injener-texnik xodimlar tashkil qilar edi.

Shak-shubhasiz, urush davrining murakkabliklari ham respublika, ham butun mamlakat harbiy iqtisodiyotining ahvoliga ta'sir ko'rsatdi. Sanoat ob'ektlari majburiy ravishda ishga tushirildi, sexlardagi stanoklar devorlarni tiklash bilan bir vaqtda o'rnatildi, hatto tomi yo'q binolarda ham mahsulotlar ishlab chiqarildi, havo esa nihoyatda sovuq edi, malakali ishchilar o'rniida endigina o'qishni tamomlagan o'smirlar va xotin-qizlar ishlardi, ishlab chiqarish sifati talab darajasida bo'lmasdi¹.

Bunday misollar ommaviy tus olgan edi. Urush yillari mobaynida respublika industriyasining xodimlari haddan tashqari ko'p mehnat qilib jasorat ko'rsatdilar. Lekin hamma ham haddan tashqari zo'riqib ishlashga bardosh berolmasdi, ba'zilar holdan tolib halok bo'lishardi. «Mehnat qochoqlari» bo'lgan ishchilarni, ishga kechikib kelganlarni jinoiy javobgarlikka tortish hollari uchrab turardi. Lekin bu ularning o'z ayblari bilan bo'lmasdi. Chunki zavodlarga odatda 12—16 km. masofani piyoda bosib borishga to'g'ri kelardi. Transport esa yo'q edi. Kiyim-bosh, poyabzal yetishmasdi, iste'mol qilinadigan oziq-ovqat ham bir holatda edi.

Ochlik va nihoyatda charchab-toliqishdan sillasi qurishiga qaramasdan sanoat xodimlari frontni qurol-yarog', jangovar texnika, moddiy resurslar bilan ta'minlash uchun bor imkoniyatlarini ishga solardilar. Ular urush davomida frontga 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2318 ming dona aviabomba, 17100 ta minomyot, 4500 birlikdan iborat minalarni yo'q qiluvchi qurol, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 mln. dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln. dona granata, dala radiostansiyalari uchun 3 mln. radio lamp, qariyb 300 mingta parashut, 5 ta bronopoyezd, 18 ta harbiy-sanitariya va hammom-kir yuvish poyezdi,

¹ Собирова Д. Ўзбекистонда хотин-кизлар масаласи тарихидан. (XX асрнинг 40-80- йиллари). Т.: "Akademnashr". 2011. 62- бет.

2200 ta ko'chma oshxona va boshqa ko'pgana harbiy anjomlar yetkazib berdilar. Faqat respublika yengil sanoat xalq komissarligi korxonalarining o'zi 1941-1945 yillar mobaynida 7518,8 mintta gimnastyorka, 2636,7 mingga paxtali nimcha, 2861,5 mingta armiya etigi tayyorlab berdilar.

Bu vazifalarni hal qilish bir qator omillar tufayli murakkablashib ketgan edi. Birinchidan, Markazning ko'p yillardan buyon paxta yakkahokimligini o'tkazib kelayotganligi sababli respublika dehqonchiligining butun tarkibi asosan paxta yetishtirishga moslashtirilgan edi. Don ekinlari yetishtirish ikkinchi darajali o'rin egallardi. G'alla asosan RSFSR va Ukrainadan tashib keltirilardi G'alla yetishtiradigan rayonlarni dushman bosib olganligi O'zbekistonning agrar tarmog'i oldiga respublikani o'z g'allasi bilan o'zini ta'minlash vazifasini qo'ydi. Holbuki, buning uchun zarur texnika, mutaxassislar yo'q edi, ajdodlar tajribasi ancha unutilgan edi. Buning ustiga stalincha ma'muriyat O'zbekiston rahbariyati oldiga "oziq-ovqat bilan o'zini-o'zi ta'minlash" vazifasini qo'yar ekan, aslo paxta ekishni kamaytirishni istamasdi, paxtachilik o'lka qishloq xo'jaligining yetakchi yo'nalishi sifatida qaralardi, uni yetishtirishni ko'paytirish zarur edi. Chunki urush sharoitida paxta mudofaa sanoati uchun g'oyat muhim hom ashyo hisoblanardi.

Urush yillari mobaynida respublika dehqonlari davlatga 4 mln. 148 ming paxta, 82 mln. g'alla, 54067 t. pilla, 195 ming t. sholi, 57 ming 444 t. meva, 36 ming ta. quritilgan meva, 159 ming 300 t. go'sht, 22 ming 300 t. jun va boshqa ko'pgina mahsulotlar yetkazib berdilar. Bu O'zbekiston qishloq mehnat-kashlarining o'zi yemay-ichmay, dushmanni tor-mor qilish uchun umumxalq kurashiga qo'shgan munosib hissasi edi.

II-BOB Xotin-qizlarning ikkinchi jaxon urishida ko'rsatgan qaxramonliklari

Urish paytida xotin –qizlarimiz hox jang maydonini olmaylik hox front ortini olmaylik mardonavor jasorat ko`rsatishgan. Ularni jasoratlari haqida ko`plab asarlar, maqolalar, kitoblar yozilgan . Ularning mardonavor jasoratini oddiy bir nechta o`zbek ayollari misolida ham ko`rish mumkin.

Ro`za Nazirova (asli ismi Xayriniso)1904-yilda Andijon viloyatining Zadaryo tumani Gurtepa qishlog`iga qarashli Qosh qishloqda batrak oilasida tug`iladi.Uning otasi boylar qo`lida yollanib ishlardi.

Roza opaning o`z tili bilan aytgaida uning xayotidagi xaqiqat va baxt yo`li quyidagicha: O`zbekiston tarixi bilan bir oz bo`lsada tanishib chiqan xar bir kishi boylar, ruxoniylar va shular kabi tekinxo`rlarni Sovet xokimiyatiga tish-tirnoqlar bilan qarshi turganliklarini yaxshi biladi. Butun o`lka bo`ylab bosmachi shaykalari kezib, ko`p kishining yostig`ini quritdilar, qishloqlar va shaxarlarga xujum qilib tinch axolini talon-toroj va xonavayrop qildilar, xotin-qizlarni yovuzlarcha zo`rladilar,bosmachi bo`lgan dexqonlarni qo`l oyoqlarni bog`lab olib ketdilar¹.

Uning xayotida 1920-yildan boshlab 1924 yilgacha o`tgan davr kishilikning butun xissiyotini o`z ichiga oladi. Lekin, bu xissiyotlarning eng kuchlisi baxt bo`lib, bu baxt ozodlik baxti, kurash baxti, ulur ishlarga qatnashiish baxti edi.

Buxoro amirligi yemirilib tashlangan bo`lsada, Buxoro xali respublikasi o`z boshidan og`ir kunlarni kechirar edi. Buxoroning sharqiy rayonlarida amir xamda bosmachi to`dalarining qoldiklari to`s-to`polon qilib yurardilar. Ularni tugatmasdan turib yangi xayot ko`rishga kirishish imkoniyati yuq edi.

1938- yilda Toshkent viloyati Yangi yo`l MTSida direktor o`rinbosari bo`lib ishlaydi . 1939- yili Nazirova kommunistlar partiyasi safiga a`zo etib qabul qilindi va yangi yo`l rayonidagi "" kalxo`ziga brigade boshlig`i qilib yuborildi. Tez orada uni shu kolxo`zning partiya tashkilotiga sekratar qilib yubirildi.Turkistonda bosmachilika qarshi kurashlarda qatnashgan, otliq divizyani siyosiy bo`lim boshlig`i bo`lib ishlagan listovskiyo`zining mashxur "Bobtog` ustidagi quyosh" nomli asarida o`rtoq Nazirovaning jangavor, faol qatnashgan. U medallar va faxriy yorliqlar bilan mukofatlanaganligi haqida ma`lumotlar bor.

Shu o`rinda Muqddam Ashrapova haqida ham aytib o`tish joiz, u o`zining jonbozlik faoliyati bilan jasorat ko`rsatgan. Muqaddam xam dugonalari bilan xarbiy komissariatga birga bordi va u xam o`z iltimosini aytdi. Xarbiy komissariatdagilar Muqaddamga: — Agar kerak bo`lib qolsangiz o`zimiz albatta chaqiramiz, xozircha qayerga yuborsalar, o`sha joyga boravering, tajriba orttiring, deb xushmuomalalik bilan javob berdilar. O`sha paytlarda tibbiyot xodimlari yetishmas edi. Qishloq. Tibbiyot punkitiining mudiri bo`lib tayinlangan Muqaddam Ashrapova bu yerda xam xirurg, xam terapevt, xam nevropatolog, xattoki — feldsher va xamshira bo`lib xam ishladi. U bu vazifada sidqidillik bilan ishlarkan, xarbiy komissariatdagi o`rtoqlarning "tajriba orttiring" deb bergan maslaxatlarini xamma vaqt yodida saqlardi.

Xalq sog`ligini saqlash yo`lida o`qib bilim olgan Muqaddam xaqqatan xam kechayu kunduz tinmasdan xizmat qila boshladi. Yoz, kuz, qish, kecha va kunduz oq xalata ustidan tushmadi, yordam surab chaqirgan joydan qolmadi, chaqirmagan joyga o`zi bordi, aravada, otida, piyoda ozmuncha masofalarni bosib o`tmadi. O`z bilimi va mehnati tufayli dardlariga davo topgan kishilarning quvnoq, va minnatdor ko`zlariga boqib ko`ngli kutaril-di, benixoya xursand bo`ldi. Kunlar, xaftalar va oylar mana shunday fidokorona mehnat bilan o`tdi.

Oradan bir yil o`tgach, Ashrapovani viloyat sog`liqni saqlash bo`limiga mudir qilib tayinladilar. Lekin, Muqaddam ma`muriy ishga qiziqmas, frontga borish orzusi sira xayolidan nari ketmasdi. Axir, Vatan taqdiri jang maydonida xal qilinayotgan edi-da. Qaroqchikum qishlog`ida o`tkazilgan bir yarim yillik xayot komsomolka qizning yuragidan joy olgan frontga borish istagini so`ndira olmadi. U qo`lga qurol ushlagan

¹ Адхам Раҳмат. Шинелли кизлар киссаси. Т.: "Ёш гвардия", 1964. 145- бет.

xolda Ukraina, Boltikbo`yi, Leningrad va Kavkaz uchun bo`lgan janglarda o`z xalqning baxtini ximoya qilayotgan jangchilarga foyda yetkazish uchun o`zida yetarli kuch borligini xis etar edi¹.

Nixoyat, tuman xarbiy komissariati uning iltimosini qondirdi.

Jang maydonida og`ir yarador bo`lganlar hayot umidi bilan xirurgga tikildilar. Ular Muqaddamning harakatidagi ravonlik, uning ko`zlaridagi jiddiylik, lablaridagi muloyim tabassumni ko`rib tinchlanar, ko`ngillari taskin topardi. Gospital atrofida bombalarning dahshatli portlashi, operatsiya xonalari tomlarining o`pirilib tushishi, daydi o`dlarning guvillab o`tishi, tepada dushman samolyotlarining qulashi muqaddamni zarracha ham cho`chitilmadi. Uning fikru xayoli, borlig`i vatan himoyachilarining hayotini saqlab qolish orzusi bilan band edi. Ashrapova o`z hayotining xavf ostida qolganini butunlay unutgan holda o`nlab, yuzlab jangchilarning hayotlarini saqlab qoldi. Bir kuni armiya xirurgi uning bir bemor yarasini davolayotganini ko`rib: “siz haqiqiy xirurg ekansiz!”— degan edi. Muqaddam o`shandan keyin butunlay xirurgiyaga berilib ketdi. U tobora ko`proq yaradorlarni operatsiya qila boshladi, tajriba ortgan sayin, jarrohlik pichog`i uning qo`lida qaltiramaydigan bo`ldi. Shu sababli jangchilar Muqaddamning mohir va shifokor qo`lini, vrachlikdagi tengsiz san`atini hali-hali eslab yurishlari bejiz emas. Bu ayol kunni kun, kechani kecha demas-dan butun vaqtini gospitallarda, medsanbatda o`tkazdi. Polk xirurgining bir daqiqa bo`lsa ham o`y-xayol surishga vaqti yo`q. Shunga qaramay ahyon-ahyonda bir, bo`sh qolgan onlarda Muqaddam xayolan institutni, uning laboratoriyalari va nurga chungan operatsiya zallarini eslar, ko`z oldiga keltirardi.

II – jahon urushi tamom bo`lgach, Muqaddam Toshkentga harbiy kiyimda kirib keldi. Uning gimnastyorkasida Qizil Yulduz ordeni va bir necha medal yaltirab turardi. 1945 yilda Ashrapova Toshkent tibbiyot instituti ikkinchi xirurgiya klinikasiga ordinatorklikka qabul qilindi. U professor M. S. Astrov rahbarligida o`z xirurglik mahoratini oshirishga, gospitalda ishlagan yillarida orttirgan tajriba va bilimni yanada kengaytirishga kirishdi. Ikki yildan keyin Ashrapova klinika assistenti qilib tayinlandi va u studentlarni o`qita boshladi.

1953-yilda institutning ilmiy kengashida Muqaddam Ashrapova tibbiyot fanlari kandidata degan ilmiy daraja olish uchun dissertatsiya yoqladi. 1958 yilda klinika dotsentligiga tayinlandi. Ashrapova o`z xunari doirasi bilan cheklanib qolmadi. U institutda jamoat ishlarida xam aktiv qatnashdi. Lekin, asosiy e`tibori ilmiy ishga, operatsiyalar qilishga, studentlar bilan mashgulotlar olib borishga qaratilgandi.

Ashrapova hozirgi kunda xam shu klinikada ishlamoqda. Kafedra professor M. P. Postolov rahbarligida eng og`ir kasalik hisoblangan jigar sirrozisini xirurgiya usulida davolash bilan bog`liq bo`lgan qiziqarli ilmiy tema ustida ishlamoqda. Klinikaga kelgan kasallar muvaffaqiyat bilan operatsiya qilinadi. Endilikda bu kasallikni terapevtlarga emas, balki xirurglarni o`zlari ham davolashi mumkinligi isbot etildi. Klinikada kun buyi olib borilgan tinimsiz ishdan, studentlar o`rtasida o`tilgan lksiyadan so`ng Muqaddam Ashrapova Topografik anatomiya kafedrasiga boradi va u yerda tajriba utkazib, bundam ilgari olingan natijalarning tugriligini qayta-qayta tekshirib ko`rish uchun hayvonlarning qorajigar tomirlarida va jigarida eksperimental suratda o`zgarish hosil qiladi. O`tkazilgan tajribalar soni ko`paygan sari bu tog`risidagi xulosalar va yozuvlar ham ortib boradi. Bularning hammasi kelgusidagi ilmiy asar uchun asos bo`lib xiz-mat qiladi. Ashrapova o`zining doktorlik dissertatsiyasini portal gipertenziya (jigar sirrozasi)ni xirurgiya yo`li bilan davolash masalasiga bag`ishlagan.

Savet Ittifoqi Komunistik partiyasi Markaziy Komitetining 1958- yili Xalqoro xotin-qizlar kuni — 8 Mart munosabati bilan xotin-qiz kolxozchilarga, fan, texnika, maorif, adabiyot, san`at, sog`liqni saqlash xodimlariga, barcha sovet xotin-qizlariga qarata yozgan maktubida bunday deyilgan edi:

”Xalqimizning kommunistik jamiyat qurilishida erishgan muvaffaqiyatlari sovet xotin-qizlarining faol va fidokorona faoliyati bilan chambarchas bog`langan. Xotin-qizlar fuqorolar urushining og`ir yillarida sabot-matonat va mardlik ko`rsatdilar; ular dastlabki besh yilliklardagi

¹ Адхам Раҳмат. Шинелли кизлар киссаси. Т.: “Ёш гвардия”, 1964. 150- бет.

qurilishlarga o'z mehnatlari bilan juda katta hissa qo'shdilar: sovet xotin-qizlari Ulug' Vatan urushida erkaklar bilan birgalikda harakat qilib, fashizmning qora kuchlari ustidan g'alaba qozonishga zamin tayyorladilar va frontda xamda mamlakat ichkarisida mislsiz qahramonona mehnat va fidokorona jangovarlik namunalarini ko'rsatdilar. Urushdan keyingi dastlabki yillarda, mamlakat urush jarohatlarini davolayotgan bir paytda xotin-qizlar juda katta qiyinchiliklarga bardosh berdilar. SSSR kommunizm yo'lida progressiv insoniyatga boshchilik qilayotgan hozirgi kunlarda dam sovet xotin-qizlari o'zlarining ilhomboxsh, fidokorona mehnatlarini sevikli Vatanga bag'ishlamogdalar..."¹.

Munira G'iyosovaning o'tmishi, jangovar hayoti va ayni kundagi faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, ko'z oldimizda ajoyib bahodir, mehnatsevar ayolning siymosi gavdalanadi.

Munira Giyosova ham millionlarcha vatanparvar xotin-qizlaridan biridir. Munira 1923-yilning orombaxsh bahor kunlarining birida Buxoro shahrida tug'ildi. Muniraning onasi — Latofat Buxorolik, otasi G'iyosiddin esa Toshkentlik edi. Muniraning yoshlik yillari asosan Buxoroda o'tdi. Chunki uning otasi Giyosiddin Faxriddinov Buxoroda sog'liqni saqlash muassasasida ishlardi.

Doimo sho'x va xushcha'hchaq Munira boshlangich maktabda o'qib yurgan yillarida sinfdosh dugonalari o'rtasida peshqadam hisoblanardi. Munira otryad vojatiysi edi. Pioneerlar bahorda va yoz oylarida shahar atrofidagi bog' va xiyobonlarga chiqib sayr qilishar, o'ynab-kulishar, va yoshlik gashtini surdi

Munira doimo o'qituvchi bo'lishni orzu qilardi. Otasining: «O'qituvchi bo'lish uchun hamma fanlardan a'lochi, intizomli, odobli va madaniyatli bo'lish kerak», degan so'zlarini hech esidan chiqarmas, ana shu sifatlarga ega bo'lishga harakat qilardi.

Munira endi Buxoro Pedagogika instituti darsxonalarida o'tirib leksiya tinglardi. U institut adabiyot fakultetining ikkinchi kursiga hamma fanlardan a'lo bahoda imtihon topshirib, o'qishga mehirlanib qo'yib, ta'lim olayotgan kunlarda Vatanimiz osmoni ustida qo'qqisdan qora bulutlar paydo bo'ldi. Nemis-fashist bosqinchilari Ona Vatanimizga qarshi xiyonatkorona urush boshlab yubordi. O'sha kunlarda Munira o'n sakkizga, singlisi Roziya o'n uch yoshga qadam qo'ygan edi.

Munira va Roziyani o'z tarbiyasiga olgan tog'asi Badriddin Muhiddinovni Toshkentga ishga chaqirdilar. Muhiddinov Toshkentda ishlab turgan paytda armiya safiga chaqirildi va frontga ketdi. Buvisi, singlisi Roziya Muniraning qaramog'ida qoldi. O'sha kunlarda Munira Toshkentning Oktabr rayonidagi 67-bolalar bog'chasida tarbiyachi bo'lib ishlardi.

1941- yilning avgust oyida Munira ham armiya safiga ko'ngilli bo'lib yozildi. Singlisi Roziyani buvising tarbiyasida qoldirib, frontga jo'nadi. Munira xizmat qilgan qism 1941- yil sentabr oyi o'rtalarida Donbass bo'sagalariga yetib keldi. Muniraning haqiqiy xarbiy hayoti boshlandi. U buvisiga xat yozib tog'asi qaysi frontda jang qilayotganini adresini bilib olgach, tog'asiga armiya safiga ko'ngilli bo'lib yozilib, frontga kelganini bildirdi. Munira xizmat qilgan qism dushman bilan qizgin janglar olib borib, Qrimning Melitopol shahriga yetib bordi. Ana shu kunlarda Muniraga katta serjant unvonini berildi.

O'sha kunlarda kichik leytenant unvonini olgan Munira G'iyosova opuska olib, 1943- yilning yoz oylarida Toshkentga keldi.

Roziya buvisi vafotidan so'ng yolg'iz qolmadi, mahalliy tashkilotlar uni dastlab bolalar uyiga, so'ngra poyafzal fabrikasi qoshidagi FZO maktabiga joylab qo'ygan edilar.

Munira Roziyani yolg'iz qoldirishni ep bilmay, uni ham frontga olib ketdi. Bir necha kun deganda front chizig'ga yetib keldilar. Munira xizmat qilgan qism Belorussiya yerlarida jang olib borayotgan kunlar edi. U o'z qismini qidirib topdi. Qism komandiri o'sha kunning o'zidayoq Roziyani qism tarbiyasiga oldi. Roziya dastlabki kunlarda harbiy gospitalda dushman bilan bo'lgan qiz'gin janglarda yaralangan jangchilarga xizmat qila boshladi. Ziyrak va chaqqon Roziya tez orada yarador jangchilarning sevvikli singillari bo'lib qoldi. Roziya ularga gazeta va jumallarda bosilgan xabar, maqolar, hikoya va she'rlarni, uylaridan kelgan xatlarni o'qib, kerak bo'lsa xatlar ham yozib berar edi. Mladshiy leytenant Munira harbiy dalapochtasiida xizmat dilgani uchun keyinchalik Roziyani ham o'z yoniga oldi. Roziya ham front sharoitiga ko'nikib qol-

¹ Адхам Раҳмат. Шинелли кизлар киссаси. Т.: “Ёш гвардия”, 1964. 32- бет.

gan, bombardim vaqtlarida qurqmay uzini dadil tutar, jangovar topshiriqni muvaffaqiyat bilan bajarishga harakat qilardi.

Polyak xaldining shahar va qishloqlarini fashist bosqinchilardan ozod qilish, ularni o'z uyasi Berlinda tamomila tor-mor qilish uchun xujum janglarini kundan-kunga qizitib borardilar. Birin-ketin mag'lubiyatga uchrayotgan gitlerchilar armiyalari sovet dushinlarining yo'lini to'sish uchun jon-jahdi bilan qarshilik ko'rsatardi.

Sovet dushinlari yovuz dushman ustidan olamshumul g'alaba qozongandan so'ng Munira va Roziya g'alaba bilan el-yurtlariga qaytib keldilar. Frontdagi jangovar xizmatlari uchun Munira G'iyosova "Jasurligi uchun" va "Germaniya ustidan Qozonilgan g'alaba uchun" medallari bilan mukofotlangan edi. Ulug' galabamizga o'zlarining munosib Hissalarini qo'shib kelgan opa-singil Giyosovalar tinch qurilish ishlariga kirishib ketdilar.

Munira bir yilcha detpriyomnikda ishladi, so'ngra Samarqand konserva zavodida brigadir, keyinroq texnolog bo'lib ishladi. U o'zining fidokorona mehnati bilan jamonining hurmat va izzatiga sazovor bo'ldi. Oradan bir yil o'tgandan so'ng zavod ma'muriyati G'iyosovani Odessa shahrida ochilgan konserva sanoati xodimlarining malakasini oshirish olti oylik kursiga o'qishga yubordi. G'iyosova kursni ham muvaffaqiyat bilan tamomlab, Samarqandga qaytdi va zavodda texnolog, kadrlar bo'limining boshlig'i bo'lib ishladi. G'iyosova konserva zavodida ishlagan uch yil ichida zavod komsomol tashkilotining sekretari bo'lib ham ishladi.

G'iyosova 1950- yilda Toshkent konserva zavodiga kelib, bu yerda ham texnolog bo'lib ishladi. Aktiv jamoatchi, Munira G'iyosova 1952- yilda partiya safiga qabul qilindi. U hozir zavod laboratoriyasida ishlab, mahsulotlarning yuqori sifatli bo'lishi, xalqimizga shirin va mazali konservalar ishlab chiqarish uchun kurashmoqda. G'iyosova Kalinin ishlab chiqarish boshqarmasi partiya komitetining a'zosi, zavod kasaba Soyuzi komitetining va boshlang'ich partiya tashkilotining byuro a'zosi.

Singlisi Roziya esa hozir kunda olti bolaning onasi. U turmush o'rtog'i sobiq gvardiyachi serjant M. Yunusov bilan birgalikda halol mehnat zavqini surmoqda.¹

Sovet kishilarining dushmanga qarshi kurashida uning jonajon Kommunistik partiyasi boshchilik qildi. Partiya har doim g'alabalarimizga ilhom berdi va uni ta'min etdi.

Urush sanoatning ish sharoitini butunlay o'zgartirib yubordi. Mahalliy partiya va sovet tashkilotlari sanoatning ishini tezda qayta ko'rib chiqib, uning oldida turgan butunlay yangi vazifalarni — ishlab chiqarishni urush manfaatlariga moslab qayta qurish, tinch yashagan davrdagi mahsulotlar o'rniga harbiy qurollar, tank, samolyot, to'p va minomyotlar, o'q va yangi yarog'-aslahalar, harbiy kiyimlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish vazifalarini hal qilishga kirishdilar.

O'zbekiston partiya va Sovet tashkilotlari bu vazifalarni amalga oshirishda VKP(b) Markaziy Komitetining 1941- yil 29- iyundagi qaroriga amal qildilar. Sanoatni harbiy izga solish masalasi O'zbekiston partiya tashkilotlarining plenumlari, partiya aktivi yig'ilishlari va byuro majlislarida, shuningdek, sovet, kasaba soyuzlari, komsomol va mehnatkashlarning umumiy yig'ilishlarida muhokama qilinib, sanoatni harbiy asosda qayta qurish, mamlakatning frontga yaqin va dushman qo'lga vaqtincha tushib qolgan joylaridan ko'chirilib keltirilgan sanoatni o'rnatish va uni tezda ishga solib yuborish masalalari bo'yicha keng va muhim tadbirlar belgilandi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining byurosi o'zining 1941- yil 25- avgustida chiqargan qarorida sanoat korxonalari ishida muhim tadbirlarni belgiladi. Bu ishga rahbarlik qilish uchun maxsus respublika hukumat komissiyasi tashkil etildi.

Mazkur komissiya mahalliy partiya, sovet tashkilotlari va jamoatchilikning aktiv yordamida katta ishlari amalga oshirdi¹.

¹ Adaxam.Raxmat. SHinnelli qizlar qissasi O'zbekiston Lksm markaziy komiteti. "Yosh gvardiya" nashiryoti Toshkent—1964. 145-148 bet.

¹ Собирова Д. Ўзбекистонда хотин-кизлар масаласи тарихидан. (XX асрнинг 40-80- йиллари). Т.: "Akademnashr". 2011. 41- бет.

Urushgacha tinch ishlayotgan sanoat korxonalari qisqa vaqt ichida samolyot va tanklarga zapas qismlar, minomyot va avtomatlar hamda boshqa harbiy qurollar ishlab chiqarishga kirishdilar. Masalan, Toshkentdagi qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodini olaylik. U urushgacha faqat qishloq xo'jalik mashinalari va unga kerakli zapas qismlar chiqarar edi, urush davrida uning bir qancha sexlari harbiy qurollar chiqara boshladi. Qolgan sexlari ham harbiy izga solib yuborildi.

Andijon shahridagi "Kommunar", "Stroy mashina" zavodlarida samolyot va tanklarga kerakli detallar chiqarila boshladi, shuningdek Andijondagi Volodarskiy, Qo'qon shahridagi Oxunboboyev nomli tikuvchilik fabrikalari harbiy kiyim tikadigan korxonalarga aylandi.

Umuman O'zbekistonda qisqa muddat ichida 230 sanoat korxonasi faqat harbiy mahsulotlar beradigan bo'lib qoldi, Chirchiq, Qo'qon ximiya zavodlari esa front topshiriqlarini bajarishga to'la moslashtirildi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va hukumat sanoat korxonalarining soni, ularning ish hajmi oshishi munosabati bilan elektr quvvati, yoqilg'i va boshqa shu kabi sanoatga kerakli narsalarni juda ehtiyot qilish va tejab-tergab sarflash, shu bilan birga oziq-ovqatlarni tejash choralarini belgiladi.

Bulardan tashqari sanoat korxonalarida, ishlab chiqarishda qo'shimcha rezervlarni hisobga olib, uni ishga solish, ayniqsa ishlab chiqarishda mexnat unumdorligini oshirish, sanoatda, transportda, artelda va boshqa korxonalarda mehnat intizomini mustahkamlash choralarini amalga oshirildi. Ko'plab kishilar urushgacha safarbar etilishi bilan sanoat korxonalarida ishchi kuchi ancha kamayib ketdi. Shu munosabat bilan ish kuchi masalasini hal etish eng muhim vazifaga aylandi. Shuning uchun ham oblast, shahar, rayon partiya, sovet tashkilotlari bu masala bilan muntazam ravishda shug'ullandilar. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti esa bu muhim masalalar bo'yicha mahalliy partiya tashkilotlarining hisobotini eshitib turdi va ularga har taraflama yordam ko'rsatdi¹.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1941- yil 9- sentabrdagi byuro majlisi ham shu masalaga bag'ishlangan edi. Byuroda urush sharoitida Toshkent shahar partiya tashkilotining ishi muhokama qilinib, Toshkent shahar partiya tashkilotining shahardagi sanoat korxonalarini harbiy izga solishda katta ishlar qilganligi qayd qilib o'tildi va konkret vazifalar belgilab berildi. Chunonchi, 1941- yil sentabr-oktabr oylari ichida sanoat mahsulotini yana 10—15 foizga oshirish tadbirlarini belgilash;

Temir yo'l transportining ishini yaxshilash orqali Toshkent temir yo'lida tashiladigan yuklarning hajmini yana 20 protsentga oshirish;

Toshkent shahar partiya komiteti qaramog'ida rahbar kadrlar rezervini tashkil etish. Bu rezervdagilar 200 kishidan kam bo'lmasligi kerak. Shuningdek, rayon partiya komitetlari qoshida 50 kishidan rezerv kadrlar saqlash.

Rahbarlik o'rinlariga xotin-qizlardan, ayniqsa o'zbek xotin-qizlaridan kotarish vazifalari qo'yildi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti byurosining ushbu qarori butun mahalliy partiya tashkilotlarida ishlab chiqildi va uni og'ishmay bajarishga kirishildi.

Buxoro oblast partiya komitetining 1941- yil 13- noyabrdagi byuro majlisida urush sharoitida oblast sanoatining ishi haqidagi masala muhokama qilinib, sanoat erishgan bir qator muvaffaqiyatlar bilan birga, hali ancha kamchilik va nuqsonlar mavjudligi ko'rsatildi. Bu kamchiliklar ayniqsa paxta zavodlarida ko'prod ruy berayotganligi ta'kidlandi. Obkom byurosi bu kamchiliklarni tugatish bo'yicha bir qator konkret choralar belgiladi. Sanoatni harbiy izga solish ishini asosan birinchi dekabrda tamom qilib, 1941- yil noyabr-dekabr oylari ichida qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish vazifasi belgilandi.

¹ Адхам Раҳмат. Шинелли кизлар киссаси. Т.: "Ёш гвардия", 1964. 123- бет.

Kogon, Buxoro, G'ijduvon, Karmana, Qorako'l va Kitob paxta zavodlariga 4122 tonna qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish vazifasi yuklandi.

Qoraqalpog'iston oblast partiya komiteta esa sanoatni harbiy izga solish ishini 15 kun ichida tamomlash grafigni tuzdi va korxonalarda 2 smenalik ish joriy qilindi. Butun sanoat mahalliy xom ashyo bilan ishlashga

Ko'chirildi, birinchi galda harbiy maxsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, boshqaruv va ma'muriy-xo'jalik ishlariga qilinadigan mablag' sarfini kamaitirish Choralari ko'rildi. Viloyat partiya komiteta Qoraqalpog'iston- ASSR davlat plan komissiyasi va moliya xalq komissarligiga 5 kun muddat ichida respublika ma'muriy idoralarini va sanoat korxonalari hamda tashki-lotlarning shtatlarini ko'rib chiqib, qisqartirish choralarini belgilash vazifasini topshirdi. Bundan tashqari kamob sanoat materiallarini, yuqori navli temir, rangli metallar va qurilish materiallarini qat'iy hisobga olish va sarflash ustidan nazorat o'rnatish vazifalari dam topshirildi. Bu ishlar O'zbekistoniing hamma tyerlarida tashkil qilindi.

Belgilangan planlarni amalga oshirish, frontga va aholiga ko'proq sanoat mahsuloti ishlab chiqarish ishchilar sinfining, injener texnik xodimlarning qah-ramonona mehnatiga, ularning vatanparvarligiga va siyosiy ongiga bog'liq edi. Ishchilar, ayniqsa mala kali ishchilar esa armiyada va frontda edi. Shuning uchun ham partiya tashkilotlaridan ishchi kuchi masalasini tezdan hal etish talab etilardi.

Toshkent shahar partiya va sanoat tashkilotlarining sanoat korxonalari uchun ixtisosli ishchilar tayyorlash soxasida qilgan ishlari tufayli qisqa muddat ichida, ya'ni 1941 yil 15 oktabrgacha kadrlar tayyorlandi. Bulardan 7620 kishi, ya'ni 65 protsenta xotin-qizlardan iborat edi. Faqat «Selvmash» zavodining o'zida 2624 ishchi tayyorlandi, ularning 52,6 protsentini ayollar tashkil qildi. Ishchi zavodida 370 kishiga (31 protsenti ayollar), «Krasnaya Zarya» fabrikasida 270 kishiga (90 protsenti ayollar) hunar o'rgatildi.

Toshkent viloyati partiya komiteta bu masalani qarab chiqib, 1941 yil 5 noyabrgacha xotin-qizlardan yana 5000 ishchi tayyorlash vazifasini qo'ydi. Ayniqsa Toshkent tuqimachilik kombinata uchun o'zbek ayollaridan ishchilar tayyorlashga alohida e'tibor berish Toshkent shahar partiya tashkilotiga topshirildi.

Bu muxim topshiriq Toshkent shahrida oshirib bajarildi. Toshkent shahar sanoat korxonalarida ayollardan 20 mingdan ziyod malakali ishchilar — tokarlar, frezerovshchiklar va boshqalar tayyorlandi.

Namangan viloyat partiya komiteta o'zining 1941 -yil 15 dekabrda bo'lib o'tgan byuro majlisida sanoat korxonalari uchun ishchilar tayyorlashning borishi masalasini muhokama qilib, qo'shimcha tadbirlar belgiladi.

Shunday dilib, boshka oblast va shadarlarda dam malakali ishchilar tayyorlashga, aynidsa ayollarni ishga kuproq jalb etishga zo'r e'tibor berildi, 1941- yil 10 oktabrgacha o'zbekistoi bo'yicha sanoat korxonalarida ishlaydigan jami ishchilarning 45 protsentini ayollar tashkil etdi.

III-BOB 1941-1945 yillarda O'zbekistonlik ayolarning fan va madaniyatiga qo'shgan xissasi.

Urushning og'ir yillarida o'zbek xalqining asosiy ma'naviy-axloqiy xususiyatlari, uning insonparvarligi yorqin namoyon bo'ldi. Prizidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, «Bizning xalqimiz voqealarga boy ko'p ming yillik tarixi davomida ko'p narsalarni boshdan kechirdi — madaniyat, ilm-fan, o'z davlatchilig'i yutuqlari nashidasini surdi, o'zaro nizolar, begonalar asorati alamini tortdi, eng yaxshi o'g'il-qizlaridan judo bo'ldi». Lekin «tarixning o'yini ham, ommonsiz jangu jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog' tushirolmadi».¹

Respublika xalq ta'limi sohasi urush yillarida bir muncha be'etibor qoldi. Urush asoratlari umumta'lim maktablarining faoliyatiga ham qattiq ta'sir qilgan edi: o'qituvchilarning frontga yuborilishi oqibatida ularning soni keskin kamayib ketdi, bu o'z navbatida maktablar sonining qisqarishga olib keldi. Faqat 1942-43 o'quv yilida respublikada 200 ta boshlang'ich va o'nlab o'rta maktablar faoliyati to'xtatildi, 360 ta maktab binosi respublikaga ko'chirilgan harbiy qismlar, kasalxonalarga berildi².

1941-1942 o'quv yili davomida ko'pgina harbiy xizmatga ketgan o'qituvchilar o'rnini to'ldirish maqsadida qisqa muddatli kurslarni ko'paytirish va IX-X-sinfni tugatayotgan o'zbek qizlarini o'qitib tayyorlash muhim vazifalar qatoridan o'rin oldi. O'zKP(b) MQ va respublika xalq komissarlari sovetining keyingi qarorlarida ham xalq maorifi tashkilotlariga 2 oylik, 4 oylik hamda 7 oylik kurslarda xotin-qizlardan iborat 750 ta boshlang'ich va to'liqsiz o'rta maktab o'qituvchisi tayyorlashga mahalliy xotin-qizlarni ko'proq jalb qilish va ularning o'qishlari uchun imkoniyatlar yaratish vazifasi yuklatildi. Qisqa muddatli kurslarda urushning dastlabki uch yili davomida 1600 yosh o'qituvchi yetishtirildi. Ularning asosiy qismi xotin-qizlardan iborat edi¹.

Urushning dastlabki uch yili davomida pedagogika oliy o'quv yurtlari 4600, pedagogika bilim yurtlari 2200 nafar o'qituvchi tayyorladi. 1940 -yilda o'qituvchi xotin-qizlar 9533 nafar bo'lsa, 1943- yilga kelib 14052 nafarga yetdi⁴. 1945- yilda respublika maktablarida ishlagan 34 ming o'qituvchining 54 foizini xotin-qizlar tashkil etgan. Urush yillari davomida ularda 20 mingdan ziyod oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar yetishib chiqdi. Ular o'z navbatida samarali mehnat qilib, fashizmni tor-mor keltirish ishiga munosib hissa qo'shdilar. 1944 -yilning avgust oyida respublikaning 89 nafar mohir pedagogiga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" faxriy unvoni berildi. Ular orasida Toshkentdagi 20-son maktabning o'qituvchisi M.Qodirova, termizlik biologiya o'qituvchisi Z.Latipova, qo'qonlik adabiyot o'qituvchisi T.Okunseva va boshqalar bor edi. S.Toshmatova, M.Otaxonova kabilar hukumat ordenlari bilan taqdirlangan.

Maorif organlari tomonidan maktablar tarmog'ini saqlab qolish yuzasidan amaliy choralar ko'rilganligi tufayli 1945- yili maktablarda o'quvchilar soni 895,7 mingta yetdi. Bu esa, urush arafasidagi raqamdan 500 mingtaga kam edi. Urush yillarida o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashga e'tibor berilib, maktab o'quvchilari kundalik o'qishni har turli mehnat bilan birga qo'shib olib borishdi.

Urush davrida maktabga jalb etilmagan qiz bolalarni urushdan keyingi yillarda maktabga jalb qilish hamda maktablarni malakali o'qituvchilar bilan ta'minlash masalasi muhim

¹ I.Po'latov." Buyuk g'alabada O'zbekiston xissasi ' O'zbekisto" nashiryoti Toshkent-1974- yil 56-78 bet
Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod,siyosat, mafkura.T.I-T1996.77-bet.

² Madraximova .R o'zbekiston xotin-qizlari II-joxon urush yillaridagimexnat va jasoratlari.-T.: Fan,1981.B.46

¹ Адхам Рахмат. Шинелли кизлар киссаси. Т.: "Ёш гвардия", 1964. 56- бет.

muammolardan biri edi. Xususan, 1947-yilda respublika bo'yicha 4 ming nafar o'qituvchi yetishmagan bo'lsa, 1950- yilda 7125 ta maktab o'qituvchilarga muhtojlik sezardi.

Urush davri sharoitlarida pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojning sezilarli darajada ahamiyat kasb etganligi tufayli urushdan keyingi yillarda o'qituvchilarni tayyorlashga alohida e'tibor berildi.

Urush yillarida xotin-qizlar orasida olib borilgan madaniy-ma'rifiy ishlar ancha samarali bo'ldi. Bunday ishlar, chunonchi Toshkent shahrining Oktabr tumanidagi Kalinin, Ordjonikidze nomli klublarda ancha salmoqli bo'ldi. Toshkent viloyatining o'zida birgina 1943- yilda 2 ming ma'ruza, 1150 kinoseanslar uyushtirildi, 500 ta spektakl qo'yib berildi. Mavjud to'garaklarda esa ming kishi ishtirok etdi¹.

Fashizmga qarshi O'zbekistonning barcha ahli qatori san'at sohasida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar ham kurashga otlandilar. Ko'pgina san'atkor xotin-qizlar jangohlarda mardlik namunalari ko'rsatib, jangchilarga ma'naviy kuch-qudrat baxshida etdilar.

Urush yillarda usta hikoyanavis, ocherknavis va publitsist sifatida tanilgan Oydingning «Qizlarjon», «Asl yor», «Umr sovg'asi» kabi asarlari xalqning o'z-o'zini anglashiga ta'sir o'tkazuvchi katta kuchga ega bo'lib, xalqning jangovar ruhini qo'llab-quvvatlar, dushman ustidan g'alaba qozonishga bo'lgan ishonchini mustahkamlar edi².

Shoiralar tomonidan o'zbek jangchilarining jasorati, xalqlar do'stligi, ishchi va dehqonlarning matonatli mehnati kuylandi. Ularning she'riy misralari jangovar quroldan qolishmaydigan dahshatli qurolga, ko'ngillarni vatanparvarlik tuyg'ulariga to'ldiruvchi zo'r kuchga aylandi. Jumladan, shoira Zulfiyaning «Sadoqat» to'plami, «Hijron kunlarida» kitobi, 1942- yilda yozilgan «Mening Vatanim», 1943- yilda yozilgan «Erimoqda qor», «Palak», «Gullar ochilganda», «Qo'limda qurolu, ustimda shinel», «Tun», «Bahor keldi seni so'roqlab» she'rlari vatanparvar, mehnatkash, vafodor, jangchi va qalbi otash o'zbek ayollarining ajoyib tuyg'ularini kuylashga bag'ishlangan edi³.

Urush yillarida 51 teatr ish olib bordi. Ular 1941-1944 yillar davomida 203 yangi asarni sahnaga qo'yib, 65 million tomoshabinga 18 568 spektakl va konsert ko'rsatdilar⁴.

Urush yillarida xalq artisti Tamaraxonim o'z ansambli bilan jangchilar uchun 1000 marta konsert ko'rsatib, ularni g'alaba sari ruhlantirgan. Gavhar Rahimova urush va urushdan keyingi ko'p yillar mobaynida O'zbekiston xalq artisti sifatida faoliyat yuritib, Xorazm «Lazgi» ansambliga 1958-1982 yillar mobaynida badiiy rahbarlik qildi, o'zining ko'p yillik xizmatlari evaziga «El-yurt hurmati ordeni» sohibi bo'ldi. 2000 yilda onaxonning 90 yillik to'yi u kamol topgan Marg'ilonda keng nishonlandi¹. «Lazgi» ansambliga 1982- yildan keyin O.Soatova, Z.G'ozieva singari san'atkorlar rahbarlik qilishgan.

1944- yilning fevralida Toshkentda o'tkazilgan O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari muzikalari dekadasi kunlarida ishtirok etgan 900 nafarga yaqin musiqachilar, qo'shiqchilar, raqqosalar, yozuvchi va shoirlar, dramaturg va rassomlarning ko'pchiligi xotin-qizlardan iborat edi.

Tasviriy san'at asarlarida ham vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari bosh mavzu bo'ldi. Urush yillarida faoliyat olib borgan rassom Shamsiro'y Hasanova g'alaba munosabati bilan

¹ Fashizm ustidan qozonilgan g'alabada O'zbekistonning tarixiy xissasi ilmiy nazariy qissasi konfrensiya matiryalari Oqulov K. O'zbekiston madaniyatifron xizmatida.-T.: FaN. 1996.B.257.

² Мадрахимова Р. Ўзбекистон хотин-қизларининг Улуғ Ватан уруши йилларидаги меҳнат ва ҳарбий жасоратлари.-Т.: Фан, 1981.Б.50.

³ Ўша ерда; Фашизм устидан қозонилган ғалабада Ўзбекистоннинг тарихий хиссаси. Илмий-назарий конференция материаллари. Ҳошимова М. Зулфиянинг уруш даври ижоди.-Т.: Фан. 1996.Б.269.

⁴ Мадрахимова Р. Ўзбекистон хотин-қизларининг улуғ Ватан уруши йилларидаги меҳнат ва ҳарбий жасоратлари.-Т.: Фан, 1981.Б.50.

¹ Зулфия Мўминова.Юртим дуоғўйларидан бири.//Саодат. 2002.№1.Б.16-17.

Moskvada o'tkazilgan Butunittifoq ko'rgazmasida o'zining asarlari bilan ishtirok etdi².

Suronli kunlarning boshidanoq o'zbek teatr arboblari fashizmga qarshi kurashchilar safida turib, matonatli faoliyat ko'rsatdilar.

Fashizmga qarshi urush yillarida Buxoro viloyatida madaniyat, teatr, san'at xodimlari ham o'zlarining katta mehnati va san'ati bilan nemis-fashist bosqinchilariga qarshi kurashga otlandilar.

Urush yillarida o'z san'ati bilan jangohlarga ma'naviy ozuqa ulashgan holda qahramonlik ko'rsatgan ayollardan biri Qashqadaryo viloyatidan beshkentlik Jamila Husainova bo'lib, u bir necha oy Buxoroda harbiy tayyorgarlikdan o'tganidan so'ng, o'zbek milliy brigadasining tibbiy yordam rotasida mehnat qila boshladi. Jamila Husainova birinchi bor shimoliy Don daryosi bo'yida jangga kirdi. Shundan keyin Janubi-g'arbiy front chiziqlarida, Ukrainani ozod qilish uchun bo'lgan janglarda ishtirok etdi. Uning qo'shiq kuylashga bo'lgan havaskorligi frontda qo'l keldi. U agitbrigada (targ'ibot-tashviqot brigadasi) safida yurib, Vatan, ona, muhabbat, do'stlik haqida kuylab jangchilarning ruhini ko'tardi. Jamila Husainova urushdagi xizmatlari uchun jangovar medallar bilan mukofotlandi¹.

Buxoro viloyati musiqa teatri artisti Rahima Olimova ham san'atkor bo'lgani holda jangchilar orasida o'zining jangovar topshiriqlarini bajara olishi bilan katta hurmatga sazovar bo'ldi. Rahima Olimova xizmat qilgan Stalingrad fronti 230-diviziya komandiri polkovnik V.P.Savin Buxoroga maktub yo'llab, u ko'rsatgan qahramonliklar haqida xabar bergan edi. Buxoro musiqa teatri artisti Rahima Olimova, drama teatri artisti E'tiborxon Oripova kabilar urush yillarida Moskva, Stalingrad, Kursk, Minsk ostonalarida jang harakatlarini olib borayotgan buxorolik jangchilar orasida bo'lib, o'zlarining ijod namunalarini namoyish etib, jangchilarni g'alabaga ruhlantirgan².

Front ichida fashizmga qarshi qahramonona jang qilayotgan jangchilarni zafar sari ruhlantirgan san'atkorlardan yana biri Mehri Abdullaeva bo'lgan. U bir guruh san'atkorlar bilan birga avval Moskvadagi gospitalda, so'ngra esa, g'arbiy frontga Gavhar Rahimova rahbarligidagi respublikamiz san'atkorlari tarkibida frontning eng qizigan o'choqlarida madaniy xizmat qilib, o'zining yoqimli qo'shiqlari bilan dushmanni yengishda jangchilarga madad bo'ldi³. Urush yillarida yaratilgan asarlarda insonparvarlik tuyg'usi ustuvor bo'lib, dohiylarni madh etishga kamroq e'tibor berildi. Mafkura nazoratchilari bunga e'tibor berib, o'zbek xalqining inqilobgacha bo'lgan o'tmishini ulug'lab yuborishdi, degan fikrga bordilar. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasi maxsus komissiya tuzib, ayrim ijodkor ziyolilar o'tmishni ulug'lab "qadimiy madaniyat qarshisida tiz cho'kishga yo'l qo'rganlar" degan xulosaga keldi. Shunga qaramay, O'zbekistonning ijodiy ziyolilari urush yillarida o'zbek xalqining ma'naviy uyg'onishi yo'lida samarali mehnat qildilar. Xalqimizning mardonavor mehnati fashizmga qarshi urushda qozonilgan g'alabaga qo'shilgan ulkan hissa bo'ldi.

Biroq, Ikkinchi jahon urushi yillarida madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida milliylik va baynalmilallik nisbati ikkinchisi hisobiga o'zgardi. Madaniyatdagi milliylikning ikkinchi darajaga o'tib qolishi esa, O'zbekiston madaniy hayotida keyingi yillarda ayniqsa, o'zining salbiy jihatlari bilan namoyon bo'ldi.

Bundan tashqari, madaniy-ma'rifiy muassasalar ish shakl uslublarida kommunistik partiyani ulug'lash, "mehnatkashlarning kommunistik ongliligini oshirish"¹ evaziga milliy urf-

² Мадраҳимова Р. Ўзбекистон хотин-қизларининг Улуғ Ватан уруши йилларидаги меҳнат ва ҳарбий жасоратлари.-Т.: Фан, 1981.Б.53

¹ Ўша ерда.Б.54.

² Сирожев О. Фашизм устидан эришилган ғалабада бухороликларнинг роли. Фашизм устидан қозонилган ғалабага Ўзбекистоннинг тарихий ҳиссаси 1941-1945йй. Илмий назарий конференция материаллари.-Т.: Фан. 1996.Б.337-338.

³ Бердиев Ю. Қўшиқнинг сеҳри. /Совет Ўзбекистони. 1974 йил 144-сон.Б.4

¹ Сулаймонова Х. Ўзбекистон хотин-қизлари коммунистик қурилишнинг актив қурувчилари.-Т.: Ўз ССР ФА

odat, qadriyatlarni kamsitish hollari yuz berdi.

Shunday bo'lsa-da, urush yillarida xalqimizning fidoyi ayollari madaniyat sohasida ham o'zlarining mardonavor jasoratlarini namoyon qilib, buyuk ishlarni amalga oshirdilar.

Urushdan keyingi yillarda ham O'zbekiston xotin-qizlarining madaniy sohalarda olib borgan faoliyati yanada keng tarzda davom etdi

O'zbekiston SSR xalq artisti yuksak unvoniga sazovar bo'lgan Malohat Ishoqova o'zining san'atdagi mehnat faoliyatini 1942 yildan boshlagan. U atoqli baletmeystri V.N.Gubskaya, Mukarramaxonim, Roziya Karimova kabi ajoyib raqs ustalaridan saboq oldi. Urushdan keyingi yillardayoq uning repertuarida paydo bo'lgan "Munojot", "Tanovar", "Katta o'yin", "Lazgi" kabi murakkab, sevimli klassik o'yinlar o'sha saboqlar, izlanishlar, mehnatlar samarasi bo'ldi

O'zbek xalqi Sharq ma'naviyatining eng yaxshi an'alariga amal qilib, urushning ayanchli yillarida ittifoqning dushman vaqtincha bosib olgan hududlaridagi aholiga do'stona bag'rini keng ochdi, o'z yurtidan ayrilgan quvg'inlarni, urush qurbonlarini qalb qarorati bilan isitdi, ularni g'amxo'rlik va mehmondo'stlik bilan ko'nglini ko'tardi, qardosh xalqlarga iqtisodiyotni tiklashda va madaniy qurilishni yo'lga qo'yishda yordam berdi. Respublika aholisining o'zi qayg'uli urush yillarida nihoyatda nochor yashashiga qaramasdan shunday yordam qo'lini cho'zdi.(3-rasm).

Urush odatdagi hayot tarzini tubdan o'zgartirib yubordi. Urushning dastlabki kunlaridan boshlab butun mamlakatda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham oziq-ovqat va sanoat mollari keskin kamayib ketdi. Ko'chirib keltirilgan aholi oqimining ortishi munosabati bilan uy-joy muammosi haddan tashqari keskin tus oldi. Elektr quvvati, yoqilg'i bilan ta'minlashdagi uzilishlar transport va kommunal xizmat ko'rsatish muassasalari ishiga salbiy ta'sir qildi.

Urush xar bir honadonga, xar bir oilaga yopirilib kirdi, odamlarni og'ir sinovlarga, mahrumliklar va azob-uqubatlarga muhtalo qildi.

Shahar aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash urush harakatlarni boshlanishi bilan oq «chiptalar» bo'yicha amalga oshirila boshlandi. Ishchilar va xizmatchilar kuniga faqat 400— 500 gr. past navli non olardi, qaramog'dagilar esa, yuqoridagi

mikdordan 1,5 baravar kamroq olishardi.¹ Aholiga go'sht, baliq, yog', yorma, makaron sotishda ham me'yorlangan taqsimot joriy qilindi. Lekin u ko'pincha kechikib ketardi, «chiptalar» tovar bilan ta'minlanmasdi.

Me'yorlangan taqsimot qishloq aholisiga umuman tatbiq etilmagandi. Qishloq aholisi oziq-ovqat mollarini matlubot kooperatsiyasi do'konlaridan davlatga topshirilgan mahsulotlari miqdoriga qarab belgilangan normalar bo'yicha sotib olardi. Kishi boshiga sanoat mollari ajratishning cheklangan yillik normasi mavjud edi: ip gazlama — 6 m., jun gazla-ma — 3 m., poyabzal — bir juft. Aholining poyabzalga bo'lgan talabi qondirilmaganligi sababli qishloq odamlari asosan yalangoyoq yurishardi yoki eng oddiy «qo'lbola poyabzal» tikib olishgandi.

Shaharliklarning moddiy sharoitini ta'minlash maqsadida ishchilar va xizmatchilarga o'z tomorqalarida va jamoa yerlarida mahsulotlar yetishtirishga ruxsat etilgan edi. Sanoat korxonalari huzurida yordamchi xo'jaliklar tashkil etiltandi. Urush yillarida ishchi va xizmatchilarning ish haqi ham oshirildi. Biroq pulning qadrsizlanishi shiddat bilan ortib bordi. Chayqov bozori ko'paydi va buning muqarrar oqibati sifatida narxlar keskin oshdi, tovar va mahsulotlar ayirbosh qilishga o'tildi.

Davlat axolining ta'minotini yaxshilash uchun choralar ko'rmagani holda, «tartibsiz bozor»ga qarshi kurashish maqsadida oshkora jazolash siyosatini qo'lladi. 1943- yilning yanvarida Davlat Mudofaa Ko'mitasining maxsus direktivasi, oziq-ovqat posidkasini, kiyimni nonga, shakarga, gugurtga ayirboshlashni, un va hokazolarni zaxiraga xarid qilishni iqtisodiy ish tashlash deb qarashni taklif etdi. 20-yillarning oxiridagi kabi yana Jinoyat kodeksining (JK) 107-moddasi (chayqovchilik) amal qila boshladi. Mamlakatda soxtalashtirilgan «jinoiy» ishlar

наширѣти. 1955.Б.33.

¹ История великой отечественной (1941-1945гг) Т.I.I.-М,1993.С.550-554.

to'liqini yana avj oldi. Buning natijasida qo'shimcha bepul ishchi kuchlari lagerlarda to'plandi. Shu bilan birga ko'p sonli nomenklaturadagi xodimlar uchun maxsus taqsimotlar va payoklar saqlanib qoldi, ularni ko'pchilik mehnatkashlar oladigan iste'mol payoklari bilan qiyoslab bo'lmadi.

Qishloqda favqulodda vaziyat vujudga keldi. Siyosiy rahbariyatning mantig'iga muvofik, qishloq mehnatkashlari mehnat kunlariga oladigan natura (mahsulot bilan) to'lovi va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari hisobiga o'zlarini oziq-ovqat bilan ta'minlashlari lozim edi. Lekin bu mahsulotlar juda cheklangan miqdorda edi, Buning ustiga urush davri voqealari kolxozchilarning tomorqa uchastkalarida ishlash imkoniyatlaridan mahrum qilib qo'ygan edi. Manbalarining dalolat berishicha, 4 yil urush mobaynida kolxozlar dehqonlarga amalda pul to'lamaganlar va mehnat kunlariga nihoyatda kam miqdorda mahsulot berganlar. Bunday sharoitda qishloq mehnatkashlari ovqat sifatida qichitqi o't, sho'ra o't, loviya, daraxtlarning yanchilgan po'stlog'i va shu kabilarni iste'mol qilishga majbur bo'lgan.

Og'ir moddiy sharoit murakkab epidemiya vaziyati bilan yanada chuqurlashib bordi. Ko'pgina qishloq tumanlarida birorta ham sanitariya shifokori yo'q edi, tibbiy xodimlar yo'qligidan tibbiyot punktlari ishlamasdi, ular dori-darmonlar, mablag'lar yo'qligi tufayli yopib qo'yilgan edi. Natijada kasalliklar va o'lim shiddat bilan avj olib bordi. Respublikada bolalar bog'chalari va yaslilari mutlaqo yetishmasdi. Maishiy xizmat ko'rsatish xizmati amalda to'xtab qolgan edi.

O'zbekiston xalqlarining insonparvarlik — vatanparvarlik faoliyatiga murojaat qilganda, bunga millatlararo munosabatlar nuqtai nazaridan yangicha yondashish ham g'oyat muximdir.

Ma'lumki, gitlerchi strateglar Sovet Ittifoqiga qarshi agressiyani boshlar ekanlar, o'zlari taxmin qilgan SSSR xalqlari o'rtasidagi millatlararo tuqnashuvlardan o'z maqsadlarida faol foydalanishni niyat qilgan edilar. Gitlarning fikricha, «Rossiyaning keng hududlarida joylashgan xalqlarga nisbatan olib boriladigan siyosat kelishmovchiliklar va ajralishning har qanday shaklini rag'batlantirishdan iborat bo'lishi lozim» edi. Ana shu maqsadda fashistlar millatchilikdan iborat ig'vogarliklarni rejalashtirgan bo'lib, ular isyonlarga, qo'poruvchilikka, mamlakatning parchalanib ketishiga olib kelishi kerak edi. Gitlerchilar qumondonligining direktiv hujjatlarida hamma joyda «rus xalqiga rus bo'lmagan xalqlar»ni qarama-qarshi qo'yish, ularni bir-biriga qarshi zaharlash qat'iyat bilan taklif etilardi.

Biroq urushning dastlabki kunlaridayoq, natsist bosqinchilarning millatlararo urush chiqarish niyati puch ekanligi ma'lum bo'ldi. Gitlerchilarning bosqinchiligi milliy vatanparvarlik tuyg'ularining haddan tashqari qudratli kuchini namoyish qildi. Umumiy kulfat ittfoqdagi barcha millatlar va xalqlarni jipslashtirdi. O'lim xavfi oldida qardoshlarcha bir-damlilik tuyg'ulari bosh axloqiy mezon bo'ldi. Xalqning azaliy insonparvarligi fashizm mafkurasidan ham, kommunistik mustabidchilik zulmidan ham ustun keldi.

O'zbek xalqining vatanparvarlik faoliyati qardoshlarcha birdamlilik va chinakam baynalmilalchilik tuyg'ulari bilan omuxtalangan edi. Bu tuyg'ular turli shakllarda ifodalandi va ko'p tomonlama xususiyatga ega bo'ldi.

O'zbek xalqining birlik va qardoshlarcha do'stlikka insonparvarlik bilan intilishining yorqin timsoli, ulkan axloqiy kuch-qudrati va haqiqiy samimiy olijanobligining chin ma'nodagi isboti Ikkinchi jahon urushi tufayli jonajon yerlarini tark etishga majbur bo'lgan kishilar to'grisida, yaradorlar va nogironlar haqida, frontga ketganlarning xotinlari va bolalari haqida qilingan g'amxo'rlikida o'z ifodasini topdi.

Evakuatsnya qnling'an aholiga ko'rsatnlgan samimiy g'amxo'rlnk

Mamlakatning dushman vaqgincha bosib olgan hududlaryani va front yaqinidagi tumanlarni tashlab chiqqan dastlabki o'n minglab kishilar respublikaga 1941- yilning yozvdayoq kela boshlagan edi. O'zbekiston urush yillari Rossiyaning bosib olingan rayonlaridan — Ukrainadan, Belorussiyadan hammasi bo'lib bir milliondan ortiq kishini qabul qildi. Ulardan 200 ming nafari bolalar edi.

Respublika shaharlari va qishloklari aholisi bu yerga kel-gan fuqarolarni mehmovdo'sglik

bilan qarshi oldi. Aholi ularga turar joy berib, o'zi siqilib yashadi, ko'chib kelganlarni to'ydirish uchun oxirgi bo'lak nonini ham bo'lib berdi, ular uchun poyabzal, kiyim-bosh to'pladi. Ko'chirib keltirilganlarga yordam berish maqsadida Farg'ona viloyatidagi «Birinchi may» qishloq xo'jalik arteli mehnatkashlarining tashabbusi bilan shaharlarga don, sabzavot, kartoshka, go'sht mahsulotlari ortilgan karvonlar yetib kela boshladi.

Ko'chirib keltirilganlarni ishga joylashtirish gozasidan katta ishlar amalga oshirildi. Faqat Toshkent shahrining o'zi-ga 1941 yil 24 noyabrdan 31 dekabrgacha 37,6 mingdan ortiq kishi, 1941—1942 yillarda qariyb 240 ming kishi joylashtirildi va ish bilan ta'minlandi.

O'zbekiston aholisi ota-onasidan va uyidan ajralgan bolalarni ayniqsa samimiy g'amxo'rlik bilan qabul qildi. «Sen — yetim emassan!» — o'zbek shoirinint qalblidan otilib chshdan bu samimiy so'zlar butun o'zbek xalqining hayajonli his-tuyg'ularini ifodalar edi. O'zbekistonliklar baxtsiz bolalarni o'z quchog'iga olish, ularning ko'nglini ko'tarish, ularga qulay shart-sharoitlar yaratib berish uchun qo'llaridan kelgan, mumkin bo'lgan va hatto mumkin bo'lmagan narsalarni ham qildilar.

Ko'chirib keltirilgan bolalarni qabul qilishni tartibli yo'sinda tashkil etish maqsadnda respublika hukumatining frori bilan 1941- yil oktabrda evakuatsiya qilingan bolalarni qabul kilish uchun markaziy punkti tashyush etkladi. O'sha yil-ning dekabrda evakuatsiya qilingan bolalarni joylashtirish-ga rahbarlik qilish uchun respublika, viloyat, shahar va tuman

komissiyalari tashkil etildi. Toshkent, Samarqand va boshqa yirik shaharlarda maxsus shtablar kecha-kutsduz ishlab turdi. Faqat 1941- yshg 25 noyabrdan 1942 yil oktabrga qadar respub-likaning evakuatsiya punktlari orqali 15649 nafar bola o'tdi. Yegib kelgan bolalar darhol samimiyat va onalarcha mehribon-lik bilan qurshab olindi. Ko'chirib keltirilgan bolalar va frontga ketganlarning bolalari har kuni Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon va Namangaqda tashkil etilgan oshxonalardan bepul ovqat olishardi. Bemor va zaiflashib qolgan bolalarga tibbiy yordam ko'rsatilardi.

Yuzlab o'zbek oilalari ko'chirib keltirilgan, urush tufayli ota-onalaridan ajralgan bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. Ayniqsa keltirilgan bolalarga jamoatchilikning yordam ko'rsa-tishidan iborat vatanparvarlik harakati 1942- Yil 2 yanvarda Toshkentda shahar xotin-qizlarining yig'ilishi bo'lib o'tgandan keyin respublikada keng quloch yoydi, bu yig'ilish O'zbekiston xotin-qizlarini ota-onasiz bolalarga onalari o'rnida onalik qilishga chaqirgan edi.

Ko'pgina oilalar ikkita va undan ortiq yetim bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. Toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning turmush o'rtog'i Bahri opa Akromovaning nomlarilari ko'pchilikka tanishdir, ular turli millat farzandlaridan 14 bolani o'z oilalariga tarbiyaga oldilar. Kattaqo'rtionlik Hamid Samadov oilasi 12 bolani asrab oldi. Yangiyo'lda 9 ta kolxoz jamoasi ko'chirib keltirilgan 169 bolani o'z tarbiyala-riga olishdi. Buxorolik Muazzam Jo'raeva va Ashurxo'jaevalar o'z bag'irlariga 8 nafardan bola oldilar. 1943 Yilning oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, kzshshoqlarda esa, 870 bola o'zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olingan edi. (4-rasm)

Respublikada asta-sekin bolalar uylari, maktab-internatlar, bolalar bog'chalari va yaslilari tarmog'i kengaytirildi, ular birinchi navbatda ko'chirib keltirilgan bolalarni va frontga ketganlarning bolalarini qabul qildilar. 1945 yilda, O'zbekiston viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda 268 ta bo-lalar uyi mavjud bo'lib, ulardagi tarbiyalanuvchilar soni 31.300 bolami tashkil etdi, holbuki, urush. arafasida respublikada faqat 106 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ularda 12 ming bola tarbiyalanardi¹.

Davlat tomonidan bolalar muassasalariga ajratilgan mablag'lar yetishmayotganligini hisobga olib, respublikaning ko'pgina mehnat jamoalari ularga qo'llaridan kelganicha yordam berishni o'z zimmlariga olshpdi. Korxonalar va tashkilotlarda bolalar uylarining filiallari tashkil etilib, ular to'la-to'kis mehnat jamoalari mablagi hisobidan ta'min etilardi.

1942- yilning boshlarida respublikaning barcha gazetalarida O'zSSR XKK huzuridagi evakuatsiya qilingan va yetim bola-larni joylapggarshd hamda tarbiyalash Komissiyasi Davlat

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т.: “Шарк”, 2000. 450- бет.

ban-kinning shahar boshqarmasqda 160676-raqamli joriy hisob och-tanligi haqidaga e'lon bosilib chikdi. Bolalar foydasi uchun bo'ladigan barcha xayriyalar ana shu ko'rsatib o'tilgan hisobga topshirilishi iltimos qilingan edi.

Mazkur da'vat javobsiz qolmadi, 1942 yilning mart oyiga kelib 60676-raqamli hisobga 2 mln. 74 ming so'm mablag' tushdi. 1943- yilga kelib bu jamg'arma fondi 3,5 mln. so'mga yetdi.

Ishchilar, xizmatchilar, dehqonlar talabalar va maktab o'quvchilarinikg otaliq yordam ko'rsatish shakllari kengaydi. Masalan, Toshkent viloyat paxta tayyorlash tresti kolxozchilari 1942- yilning bahorida klub binosini internatga aylantirib, qayta jihozladilar va bu yerda Belorussiyadan kelgan 25 bolani tarbiyaladilar. Bu namunaga shahardagi deyarli 70 ta korxona qo'shildi.

1941-yil iyundan 1944-yilgacha O'zbekiston teatrlari 203 ta yangi postanovka, 18568 marotaba sepektakl va konsertlar ko'rsatdilar.

Urush yillarida o'zbek xotin-qizlari front- konsert birgadasining munosib ulushi bor. Respublikamiz sa'nat ustalari 30 ta konsert brgadalariga bo'linib, frontdagi janghilarga 35 ming, gospitillarda esa 26 ming konsert ko'rsatdilar. Front birgadalar tarkibida Tamaraxonim, X. Nosirova, S. Eshontorayeva, M. Turg'unboyeva, A. Xidayatov, O. Xo'jayev, G. Raximova, K. Zokirov singari taniqli sanatkorlar bor edi.

O'zbekistonlik Zebo G'aniyevaning Moskva ximoyasi uchun ko'rsatgan jasorati tillarda doston bo'ldi. Zeboxon xalq ko'ngillari safida Moskva mudofasiga otlandi. U o'z hayotini bir necha bor xavf ostida qoldirib razvetkachilar safida 12 marta <<til>> (dushmaning rejalari-planini bilib olish maqsadida tirik asir tutib kelish) operatsiyasida ishtirok etib, shuxrat qozondi. Zebo G'aniyeva jang maydonlarida 28 fashist jallodni yer tishlatdi. Qizil bayroq ordeni bilan mukofatlandi.¹

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sovet xokimiyati va kamunistik partiyaning xotin-qizlarga munosabat masalasidagi mustamlakachilik moxiyatiga ega bo'lgan ziddiyatli siyosat jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy- ma'rifiy soxalarda 70 yil mobaynida amalga oshirib kelindi. Bu jarayonda sovetlar xokimiyatining g'arazli maqsadi va intilishlari niqoblangan tarzda yo'naltirilgan bo'lib, u quydagi xolatlarda o'zakasini topdi.

Sovet xokimiyati va kamunistik partiya xotin-qizlar yordamida o'z diktaturasini mustaxkamlashga intilib, ma'muriy –buyruqbozlik boshqaruvi usuli asosida siyosat olib boradi. Shuning uchun xam O'zbekiston xotin-qizlari kamunistik partiya raxnamoligidagi savetlar mustabid tuzimning yakka xokimlik, mamuriy- buyruqbozlik siyosati qurboniga

¹ R.T. shamsuddinov. Vatan tarix 2 tom

aylandi.

Sovet xokimiyati komunistik partiyaning ma'naviy raxnamoligida ayollarinning ijtimoiy-siyosiy va kasb-kor martabasini, ularning raxbarlik lavozimlarda ishlashini qo'lab – quvvatladi xamda muntazam rag'batlantirib bordi. Ayollar ijtimoiy xayotda faollashuvi turli to'siqlarga va muamolarga duch keldi. Buquydagi xolatlarda ko'zga tashlandi.

-ishlab chiqarishda ishtirok etgan ayollarning tajribasi, kasbiy malakasi yo'qligi uchun ko'proq xaq to'lanadigan qo'l mehnati bilan shug'ulanishga majbur edilar;

-ayollarning oila xo'jaligida bajaradigan mehnati xam qisqartirilmadi ;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBLAR RO'YHATI

I.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari,

Farmonlari va hukumat qarorlari

1. Каримов И.А.Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1- жилд. - Т.: Ўзбекистон.1996. - 364 б.

2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон. 1996. - 380 б.
3. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд -Т.: Ўзбекистон. 1996. - 366 б.
4. Каримов И.А.Бунёдкорлик йўлидан. 4-жилд. –Т.: Ўзбекистон. 1996.- 349 б.
5. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. 5-жилд. –Т.: Ўзбекистон. 1997.- 384 б.
6. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан курмоқдамиз. 7-жилд. –Т.: Ўзбекистон. 1998. - 429 б.
7. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Т.: Ўзбекистон. 1998. - 32 б.
8. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. 8-жилд. – Т.: Ўзбекистон. 2000. – 528 б.
9. Каримов И. “Шаҳидлар хотираси” меъморий мажмуасининг очилиш маросимидаги маърузаси. 2000 йил 12 май. – Т: Ўзбекистон, 2000, Асарлар.8-жилд. – 528б.
10. Каримов И.А. Юксак маънавият –енгилмас куч. –Т.: Маънавият. 2009. -173 б.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Азиззода Л. Янги ҳаёт курашчилари. – Т.: Фан. 1976. -144б.
2. Акилов К.А., Аббасова Л.А. Женщины Узбекистана в культурном строительстве. – Т.: Фан. 1976.
3. Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии: История изучения и современные проблемы (АН РУ Институт Истории.-Т.: Фан. 1991. -132с.
4. Алимова Д.А. Решение женского вопроса в Узбекистане (1917-1941): Краткий историографический очерк (АН РУ.Институт Истории.-Т.: Фан. 1987. -69с.
5. Алимова Д.А. «Хужум»га зарурат бормиди? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1992 й. 11 сентябрь.
6. Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. -Т.: Фан. 1975. -353с.
7. Аминова Р.Х. Аграрное преобразование в Узбекистане 20-х годов. // ОНУ-1989 № 9.
8. Аминова Р.Х. Аграрное преобразование в Узбекистане накануне сплошной коллективизации. 1925-1929. – Т.: Фан. 1969. -468.
9. Аминова Р.Х. Коллективизация в Узбекистане: как это было? Коммунист Узбекистана. 1989. №10.С.81.
10. Аминова Р.Х. Коллективлаштириш-қашшоқлаштириш демак // Шарқ юлдузи. 1992 №12.-183б.
11. Аминова Р. Рост творческой активности женщин советского Узбекистана// Общественные науки Узбекистана.1987.№3.29-36с.
12. Анъаналар, дин ва аёлларнинг ижтимоий мақоми //Ўзбекистон Республикаси хотин-қизларининг ахволи тўғрисида маъруза, RBEC // Undz, 1999. -95 б.
13. Араловец Н.Д. Женский труд в промышленности СССР. -М.: Профиздат.1954. - 98с.
14. Ахунова М., Убайдуллаева Р.Женщины Узбекистана навстречу международному году женщины// Общественные науки в Узбекистане.1975.№8.3-8с.
15. Бикжанова М. Семья в колхозах Узбекистана. -Т.: Изд-во АН УзССР. 1955.-

134с.

16. Бобожонова Д.Б. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар.-Т.: Шарқ, 1999.-158б.

17. Бобожонова Д.Б. Аҳоли саломатлиги ва экологик муаммолар, Т.: Фан, 1996. 4 б.

18. Вахабов М.В. Ислам и женщина. –М.: Мысль.1968.-168с.

19. Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси.Т.: Ўзбекистон, 2003. -411б.

20. Зиёев Х. Тарих – ўтмиш ва келажак кўзгуси. – Т.: Адабиёт ва санъат. 2000. – 288б.

21. Собиова Д. Адабиётни кўрсатинг.

INTERNET MATERIYALLARI

1. www.mbs-multimedia.ru - Ўзбекистон.

2. www.gender.ru;

3.mcgs@online.ru

4.mcgs@inecon.ru.